

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI
VAZIRINING
BUYRUG‘I

**SHNQ 1.04.03-23 “BINO VA INSHOOTLARNI QURISH, REKONSTRUKSIYA QILISH,
TA’MIRLASH VA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISH”
SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 7-fevralda hisobga olindi,
hisob raqami 232]**

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-oktabrdagi 577-son “Qurilish sohasiga oid talablarni soddalashtirish hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. ShNQ 1.04.03-23 “Bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish” shaharsozlik normalari va qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 2005-yil 7-dekabrda 67-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan ShNQ 1.04.03-05 “Turar joylar, kommunal va ijtimoiy-madaniy obyektlarni qayta qurish, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish to‘g‘risida tartibi” shaharsozlik normalari va qoidalari;

O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 1998-yil 1-dekabrda 81-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan QMQ 3.01.08-99 “Turar-joy va jamoat binolarini hamda inshootlarni kapital ta’mirlashni tashkil qilish” qurilish me’yorlari va qoidalari;

O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2021-yil 28-aprelda 97-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan ShNQ 1.04.05-20 “Ko‘p xonadonli uylarda xonalarni rekonstruksiya qilish, o‘zgartirish va qayta uskunalash bo‘yicha binolar xavfsizligini ta’minlash qoidalari” shaharsozlik normalari va qoidalari.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

4. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir B. ZAKIROV

Toshkent sh.,
2024-yil 18-yanvar,
14-son

Kelishildi:

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining raisi
B. YuSUPALIYEV**

2023-yil 11-dekabr

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. ABDUXAKIMOV

2023-yil 18-dekabr

Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDAShEV

2023-yil 26-dekabr

ShNQ 1.04.03-23 “Bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlesh va ularga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish” shaharsozlik normalari va qoidalari

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda ShNQ deb yuritiladi) turar joy obyektlari, fuqaroviy obyektlar, shuningdek ishlab chiqarish obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish (kengaytirish, modernizatsiya qilish, qayta jihozlash, qayta tarhlash) va ta’mirlesh ishlarini tashkil etishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Ushbu ShNQning rekonstruksiya qilish va ta’mirlesh bo‘yicha qoidalari bino va inshootlarning maxsus jihozlariga, sanitariya, yong‘inga qarshi hamda boshqa texnologik uskunalarni avtomatlashtirish qurilmalariga, inventar va ko‘chma binolarga, shuningdek arxitektura, madaniy va tarixiy yodgorliklar sifatida tasniflangan binolarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativ hujjatlarga havolalar

1. Mazkur ShNQda quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativ hujjatlarga havolalar keltirilgan:

QMQ 1.03.03-97 “Turar joy, jamoat bino va inshootlarini kapital ta’mirlesh bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqilishi, kelishilishi va tasdiqlanishi tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”;

ShNQ 1.04.02-05 “Turar joy binolarini kapital ta’mirlesh. Loyihalash me‘yorlari”;

QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi”;

ShNQ 3.01.01-22 “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish”;

QMQ 3.01.09-97 “Kapital ta’mirlanishi tugallangan turar joy va jamoat binolari hamda inshootlarni foydalanishga qabul qilish qoidalari”;

SanQvaN 0022-22 “Qurilish ishlarini tashkil qilish bo‘yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari”.

2-bob. Atamalar va ta’riflar

2. Ushbu ShNQda quyidagi atamalar va ularning ta’riflari qo‘llanilgan:

bino va inshootlarni modernizatsiya qilish — binoning mavjud o‘lchamdagi foydalanish ko‘rsatkichlarini zamonaviy talablarga muvofiqlashtirishga qaratilgan qurilish-montaj ishlari majmuasi (bino, seksiyalar va kvartiralarining tarhiy yechim elementlarini o‘zgartirish, binoni yetishmayotgan muhandislik uskunalari bilan jihozlash, tizimlar va alohida konstruksiyalarni almashtirish);

joriy texnik xizmat ko‘rsatish — qurilish elementlarining holatini va belgilangan parametrlarini, shuningdek binodagi texnik qurilmalarni ishlash rejimlarining saqlanib turishini ta’minlovchi ishlar majmui;

joriy ta’mirlesh — binoning foydalanish ko‘rsatkichlarini saqlab turish bo‘yicha ta’mirlesh ishlari majmui;

inshoot — har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish, moddiy qimmatliklarni joylashtirish va saqlash, odamlarning vaqtincha bo‘lishi (harakatlanishi), shuningdek uskunalar yoki kommunikatsiyalarni joylashtirish (o‘tkazish, ulash) uchun mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi qurilish tizimi;

ishlab chiqarish obyektlari — odamlar va texnologik asbob-uskunalar ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar ta’minlanadigan ishlab chiqarishni joylashtirish uchun mo‘ljallangan binolar hamda inshootlar;

kuchaytirish (mustahkamlash) — haqiqiy holat yoki loyiha ko'rsatkichlari bilan solishtirganda bino yoki qurilish konstruksiyasining va umuman inshootning yuk ko'tarish qobiliyati hamda foydalanish xususiyatlarini oshirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmui;

mukammal ta'mirlash — binoning ishonchliligini va unda qulay sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan foydalanish ko'rsatkichlarini yaxshilagan holda qayta tiklash bo'yicha qurilish-ta'mirlash ishlari majmui;

nosozlik — elementning belgilangan foydalanish talablardan kamida bittasiga javob bermaydigan holati;

nuqson — qurilish elementini tayyorlash, montaj qilish yoki foydalanish qoidalari, me'yorlar va texnik shartlarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan nosozliklar;

rekonstruksiya qilish — asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni (yuklamalarni, xonalarning rejalashtirilishini, binoning qurilish hajmini va umumiy maydonini, muhandislik jihatdan jihozlanishini) o'zgartirish bilan bog'liq qurilish ishlari va tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

turar joy obyektlari — odamlar yashashi uchun mo'ljallangan binolar, doimiy yashash uchun uy-joylar (xonadonlar), shuningdek vaqtincha yashash uchun yotoqxonalar, mehmonxonalar, maktab-internatlar, qariyalar uylari;

fuqaroviy obyektlar — madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va tashkilotlarini, bank-moliya muassasalarini, qurilish-kommunal tashkilotlarini, aloqa hamda transport korxonalarini joylashtirish uchun mo'ljallangan binolar va inshootlar;

shikastlanish — tashqi ta'sir (hodisa)lar tufayli yuzaga kelgan element yoki uning tarkibiy qismlarining nosozligi;

qisqa muddatli prognozlash — texnik ko'rik va tadqiqotlar ma'lumotlarini hisobga olgan holda uzoq muddatli prognozlarni aniqlashtirish va konkretlashtirishni, mavsumiy sharoitlarni hisobga olgan holda binoni foydalanishga tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar.

3. Mazkur ShNQda quyidagi qisqartmalar qo'llanilgan:

QTL — qurilishni tashkil qilish loyihasi;

IBL — ishlarni bajarish loyihasi;

VBI — vaqtinchalik bino va inshootlar.

3-bob. Umumiy qoidalar

4. Qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash ishlari QTL va texnologik xaritaga muvofiq tuzilgan taqvimiy reja asosida olib borilishi lozim.

Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish QMQ 1.03.03-97 va ShNQ 1.04.02-05 ga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

5. Obyektda qurilish ishlari sanitar, maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish ishlari tashkil qilingandan keyin boshlanishi kerak.

6. Qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini tashkil etishda, loyiha hamda ishchi hujjatlar talablariga, shuningdek qurilgan (ta'mirlangan) bino va inshootlarning energiya samaradorligi talablariga muvofiqligi hamda ularning ishlatilgan energiya resurslarini hisobga olish moslamalari (hisoblagichlar) bilan jihozlanishi va mazkur ishlarni bajarish jarayonida xavfsizlik choralari ko'rilishi lozim.

7. Qurilish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash obyektlari bo'yicha qurilishni tashkil etish loyihasida bajarilayotgan ishlarning barcha turlari uchun ShNQ 3.01.01-22 ning 1-ilovasida keltirilgan namunaga muvofiq jurnallar yuritilishi kerak.

8. Qurilishi, rekonstruksiya qilinishi va mukammal ta'mirlanishi tugallangan obyektlarni topshirish hamda qabul qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish, bajarish ketma-ketligi QMQ 3.01.09-97da belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4-bob. Qurilish ishlarini tashkil etish

1-§. Umumiy qoidalar

9. Qurilish ishlarini tashkil qilishda quyidagilarni ta'minlash lozim:

iqtisodiy samaradorligini, foyda olish va ustama sarf-xarajatlarini, boshqa limit xarajatlarini qisqartirishni;

bino, inshoot, tarmoq, bo‘lim, qavatlarini hisobga olgan holda moddiy resurslarni taqvimiy reja va ish jadvali asosida yetkazib berishni;

qurilish-montaj ishlarini tartibli bajarish, mehnatni muhofaza qilish hamda texnik, yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat‘iy rioya qilishni;

atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga amal qilishni.

10. Obyekt qurilishi quyidagi ishlar bajarilgandan keyin amalga oshirilishi kerak:

qurilish uchun maydon (trassa) ajratish;

qurilish maydonini himoyalash vositalari bilan o‘rash;

qurilish uchun geodezik rejalash asosini barpo etish.

11. Bino va inshootlarni qurishdan oldin quyidagilarni amalga oshirish lozim:

maxsus ajratilgan joydagi erni rekultivatsiya uchun ishlatiladigan gruntning o‘simlik qatlamini kesishni;

yashil hududlardagi daraxt, buta va o‘simliklarni saqlash, himoya qilish hamda zarar yetkazmasdan ko‘chirib o‘tkazish choralari ko‘rishni;

suvni chetlatish ishlarini;

qurilishni tashkil qilish va ishlarni bajarish loyihalarida ko‘rsatilgan, qurilish vaqtida foydalaniladigan asosiy va vaqtinchalik yo‘llar, muhandislik tarmoqlarini (kanalizatsiya, suv, issiqlik, elektr ta‘minot va boshqalar) o‘tkazish ishlarini.

12. Bino yoki inshootning erusti konstruksiyalari yoki ularning qismlarini qurish bo‘yicha ishlarni boshlashda uning erosti qismi qurilishi to‘liq tugamaguncha va xandaqlarni, transheyalarni, chuqurlarni (qazib olingan tuproqning tabiiy holatdagi zichligini yoki loyihada berilgan zichlikni ta‘minlagan holda) qayta to‘ldirish ishlari amalga oshirilmagunga qadar davom ettirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Qurilish maydonchasi tabiiy ofat va geologik jarayonlar (sel, ko‘chki, botqoqlik, toshqin va boshqalar) xavfi mavjud bo‘lgan hududda joylashganda qurilish uchun geodezik rejalash asosi barpo etilgandan so‘ng maydoncha ichidagi tayyorgarlik ishlarini bajarishdan oldin, hududni maxsus loyiha asosida tabiiy ofat va geologik jarayonlardan himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

2-§. Qurilish jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish

14. Obyekt qurilishi boshlanishidan oldin QTLda rioya etilishini ta‘minlagan holda, qurilish ishlari hajmidagi barcha tayyorgarlik ishlari, shuningdek umumiy tashkiliy-texnik tayyorgarlik hamda bosh pudratchi (pudratchi) tomonidan obyektни qurilishga tayyorlash ishlari bajarilishi lozim.

15. Umumiy tashkiliy-texnik tayyorgarlik ishlari mazkur ShNQning talablarini hamda quyidagilarni inobatga olish lozim:

qurilishni loyiha hujjatlari bilan ta‘minlashni;

qurilish uchun maydon (trassa) ajratishni;

buzish kerak bo‘lgan binodagi istiqomat qiluvchilar va tashkilotlarni ko‘chirish ishlarini hal qilishni;

quruvchilarni o‘tish yo‘llari, elektr, suv va issiqlik, aloqa bo‘limi hamda ishchilarni maishiy xizmat xonalari bilan ta‘minlashni;

qurilishga jihoz, konstruksiya, buyum va tayyor mahsulotlar yetkazib berishni.

16. Har bir obyektни qurishga tayyorlashda muhandis-texnik xodimlar tomonidan loyiha hujjatlarini (rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, obyektни mukammal ta‘mirlash paytida bino va inshootlarni texnik tekshirish natijalari) o‘rganish, qurilish shartlari bilan batafsil tanishish, qurilish maydonidan tashqaridagi va ichkaridagi tayyorgarlik ishlari hamda binolar, inshootlar va ularning qismlarini qurish uchun IBLni ishlab chiqish, shuningdek atrof-muhit muhofazasi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablarini hisobga olgan holda tayyorgarlik davri ishlarini bajarishni o‘z ichiga olishi lozim.

17. Qurilish maydonining tashqarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

obyektga kirib kelish yo'llari qurishni;
transformator podstantsiyalari bilan elektr uzatish tarmoqlari o'rnatishni;
suv to'plash inshootlariga ega bo'lgan suv ta'minoti tarmoqlari o'tkazishni, tozalash inshootlari bilan birgalikda oqova suvlarni oqizish kollektorlari o'rnatishni;
quruvchilar uchun yashash joylari barpo etishni;
qurilishni boshqarish uchun aloqa inshootlari va qurilmalar qurishni.

18. Qurilish maydonining ichkarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

qurilish uchun geodezik rejalash asosini topshirish-qabul qilish ishlari;
qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun qurilish maydonchasini bo'shatish (hududni tozalash, keraksiz binoni buzish va boshqalar), hududni tekislash, grunt suvlari sathini pasaytirish (zarur bo'lgan hollarda);

qurilishni tashkil etish loyihasiga muvofiq vaqtinchalik muhandislik tarmoqlarini yotqizish; doimiy va vaqtinchalik yo'llarni, zarur bo'lgan hollarda kirish-nazorat rejimini tashkil etish; omborxonalar, yordamchi, maishiy va ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi bino va inshootlarni joylashtirish, ombor maydonchalarini hamda materiallar, konstruksiyalar va uskunalar uchun xonalarni tashkil etish;

ishlar bajarilishini tezkor-dispetcherlik boshqarish uchun aloqa tizimini tashkil etish;
qurilish maydonchasini yong'inga qarshi suv ta'minoti va yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari, yoritish hamda signalizatsiya vositalari bilan ta'minlash.

19. Qurilish maydonining ichkarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari qurilish-montaj ishlari boshlanishidan oldin bajarilishi kerak.

20. Noyob va alohida muhim obyektlar qurilishiga tayyorgarlik ko'rish, (seysmometrik, gidrogeologik, geokimyoviy, geodezik, marksheyderlik, meteorologik, tenzometrik, glatsiologik va boshqalar) kuzatuvlarni tashkil etish ishlarini, shuningdek sinov poligonlari, metrologik punktlar va o'lchash stansiyalarini qurish ishlari bajarilishi lozim.

21. Qurilish-montaj ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rishda pudrat tashkiloti tomonidan quyidagi tashkiliy tadbirlar amalga oshiriladi:

brigadalarni talab darajasidagi kichik mexanizatsiya vositalari, asboblari, o'lchash va boshqarish vositalari, montaj uskunalari bilan ta'minlash uchun asbob-uskunalar xo'jaligini tashkil etish;

yirik konstruksiyalarni yig'ish maydonchalarini jihozlash;
qurilish konstruksiyalari, mahsulotlari va materiallarining zaruriy zaxirasini tashkil etish;
ish joylariga qurilish mashinalari, mexanizatsiyalashgan ko'chma (mobil) va energetik qurilmalarni yetkazib berish yoki ko'chirib o'tkazish.

3-§. Qurilish maydonchasi

22. Qurilish maydonchasining chegaralari qurilish bosh tarhida yoki situatsion tarhda ko'rsatiladi.

23. Obyektlarni qurishda montaj kranlari va boshqa vositalar asosiy uchta texnik parametrlar bo'yicha tanlanadi:

yukni ko'tarish balandligi;
montaj krani o'qining uzunligi;
montaj ishlarini bajarish samaradorligining ko'rsatkichlari.

24. Pudratchi qurilish jarayoni davomida qurilish maydonchasini va unga tutash bo'lgan hududning kamida 5 m maydonini doimiy tozalashni, maishiy va qurilish chiqindilarini, shuningdek qorni o'z vaqtida olib chiqilishini ta'minlashi lozim.

25. Qurilishni amalga oshiruvchi bosh pudratchi (pudratchi) shahar hududida joylashgan qurilish maydonchasida yoki ularning chiqish joylarida transport vositalari g'ildiraklarini yuvish punktlarini, shuningdek chiqindi yig'ish qurilmalari yoki bunkerlarni joylashtirishi lozim.

26. Yoritish tizimi buzilganda, inson salomatligi yoki xavfsizligi uchun xavf tug'diradigan joyda qo'shimcha ravishda ikkilamchi yoritish tizimi bilan ta'minlanishi kerak.

27. Qurilish maydonchasini videokuzatuv qurilmalarini o'rnatish uchun joylar, tayanchlar hamda uzluksiz ishlashi uchun texnik vositalar bilan ta'minlashi lozim.

4-§. Vaqtinchalik bino va inshootlar

28. Qurilish ehtiyojlari uchun VBI qurilishni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan qurilish maydonchasida yoki chiziqli obyektlarning chekka qismlarida quriladi (o'rnatiladi) va ular qurilish tugaganidan keyin olib tashlanishi, bunda VBI asosan mobil (inventar) bo'lishi kerak.

29. Qurilish maydonchasida joylashtiriladigan VBI tarkibi QTL tarkibidagi qurilish bosh tarhida belgilanishi zarur.

30. Qurilish ehtiyojlari uchun foydalanishga moslashtirilgan mavjud bino va inshootlar hamda ulardagi alohida xonalar maishiy, ishlab chiqarish, ma'muriy va turar joy binolarga, inshootlarga oid amaldagi qurilish, yong'in, sanitariya-epidemiologiya normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

31. Quruvchilarning maishiy shaharchalari, ishchilarning dam olish va o'tish joylari SanQvaN 0022 qoidalariga muvofiq xavfli zonalaridan tashqarida joylashtirilishi kerak.

5-§. Qurilish obyektlarini buzish

32. Obyektni buzish ishlari buzilishi rejalashtirilgan bino va inshootlar ro'yxatini tuzish, quruvchilarning, aholining, atrof-muhit va muhandislik infratuzilmasining, shuningdek erosti kommunikatsiya tarmoqlarining xavfsizligini ta'minlagan holda buzish bo'yicha zarur texnik yechimlarni o'z ichiga olgan buzish yoki demontaj ishlarini tashkil etish loyihasiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

33. Obyektni buzishdan oldin texnologik va maxsus jihozlar, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika, muhandislik tizimlari, muhandislik uskunalari, sanitariya-texnik tarmoqlari, eshik va derazalar, balkonlar, zinapoya mashrlari va panjaralarning to'siqlari demontaj qilinadi.

5-bob. Rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish

1-§. Umumiy qoidalar

34. Mavjud bino va inshootlarda olib boriladigan qurilish ishlari quyidagi turlarga bo'linadi: rekonstruksiya qilish; mukammal ta'mirlash; joriy ta'mirlash.

35. Ishlarni bajarish muddatining davomiyligi 6 oydan ortiq bo'lgan hajmli va tekislik obyektlarini, shuningdek ishlarning davomiyligidan qat'i nazar, chiziqli obyektlarni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashni loyihalashda, qurilishni tashkil etish loyihasi loyiha hujjatlarining bir qismi sifatida ishlab chiqilishi kerak.

36. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

har qanday rekonstruksiya yoki ta'mirlash binoning foydalanish xususiyatlari, xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, mavjud sanitariya-gigiyena talablari darajasini pasaytirishga olib kelmasligi;

taqiqlanmagan materiallarni qo'llash yoki asbob-uskunalarni o'rnatishda ushbu material yoki uskunani xavfsiz o'rnatish bilan bog'liq standartlar qoidalariga rioya qilinishi.

Shuningdek, bino yoki inshootning rekonstruksiya qilinmagan, o'zgartirilmaydigan yoki ta'mirlanmaydigan qismlari yangi qurilgan bino yoki inshootlarga nisbatan qo'llaniladigan talablarga muvofiq bo'lishi talab qilinmaydi.

Almashtiriladigan material yoki asbob-uskunalar shunga o'xshash material yoki o'sha quvvatdagi uskunalar bilan almashtirilishi mumkin.

37. Bino, inshootlar yoki ularning elementlarini ta'mirlash muddatlarini aniqlash texnik kuzatuvlar natijasida belgilanishi kerak.

2-§. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish

38. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish kompleks va qisman turlarga bo'linadi.

39. Kompleks rekonstruksiya qilishda bino yoki inshootlarning barcha eskirgan va shikastlangan qismlari, konstruksiyalari va jihozlari tiklanadi yoki yangilanadi.

Shuningdek, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlaridagi obyektlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun mavjud bino hamda inshootlarni kengaytirmasdan rekonstruksiya qilish, muhandislik tizimlarini almashtirish, poydevorni tiklash, yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni mustahkamlash, tomni almashtirish, obodonlashtirish darajasini yaxshilash ishlari amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

40. Bino yoki inshootni qisman rekonstruksiya qilishda umumiy texnik holati qoniqarli bo'lishi, bunda texnologik liniyalarni shuningdek bino va inshootning alohida elementlarini almashtirilishi ko'zda tutilishi kerak.

41. Fuqaroviy va ishlab chiqarish binolari hamda inshootlarini rekonstruksiya qilishda quyidagi ish turlari bajarilishi lozim:

gabarit o'lchamlari va texnik tavsiflarini o'zgartirish bilan obyektning to'liq yoki qisman qayta tashkil etish;

qo'shimcha qurilish ishlarini amalga oshirish (qo'shimcha qavat yoki qo'shimcha bino qurish);

barcha muhandislik kommunikatsiyalarini rekonstruksiya qilish yoki to'liq almashtirish;

yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni mustahkamlash;

binoni qayta jihozlash.

Bino va inshootlarning holatiga ko'ra obyektlarni rekonstruksiya qilish vaqtidagi ishlarning tarkibiga bino va inshootlarni mukammal ta'mirlashda bajariladigan zarur ishlar ham kiritilishiga yo'l qo'yiladi.

42. Ishlab chiqarish obyektlarini texnik qayta jihozlash ilg'or texnika va texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan asbob-uskunalarini yangi va samarador asbob-uskunalar bilan almashtirish, shuningdek sanoatning ayrim tarmoqlari (alohida ishlab chiqarishlar), sexlari va uchastkalarining texnik-iqtisodiy darajasini oshirish, umumiy korxonalar jihozlari va yordamchi xizmatlarni yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

43. Ishlab chiqarish obyektlarini kengaytirish ishlari quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur: mavjud korxonalar (tuzilma)da qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va yaratishni; alohida sexlar hamda yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi inshootlarni yangilarini qurishni.

44. Ishlab chiqarish obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash loyihalash topshirig'i sanoatning texnologik xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

45. Asosiy ishlab chiqarishni to'xtatish muddati (ish loyihasi) qayta ta'mirlash loyihasi va ishlab chiqarish loyihalari bilan belgilanishi kerak.

46. Ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilishda, shuningdek qurilish va foydalanish ishlarni bajarishda obyektning ichki transport kommunikatsiyalari, muhandislik tarmoqlari hamda yuk ko'tarish jihozlaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Shuningdek, ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilishda texnologik transport vositalari va kommunikatsiya, jihoz, muhandislik tarmoqlarini tekshirish ma'lumotlarini, demontaj va qurilish-montaj ishlari (gazlanish, changlanish, portlash va yong'in xavfsizligi, kuchli shovqin va boshqalar) shartlarini hisobga olish lozim.

47. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

qurilish-montaj ishlarini bajarish hajmi, texnologik tartibi, muddatlari hamda ularni qayta ta'mirlash ishlarini bajarilishi;

shikastlanish holatlari mavjud obyektlarda quruvchi va foydalanuvchilar uchun xavfsiz harakatini hisobga olinishi;

konstruksiyalar ajratmasini hamda muhandislik tarmoqlarini o'zgartirish yoki ishlab chiqish, vaqtinchalik suv, elektr ta'minoti va ularning ulanish joylarini aniqlanishi;

buyurtmachi xizmatlari va ishlab chiqarish vaqtida quruvchilar tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan texnik vositalar ro'yxati tuzilishini;

rekonstruksiya qilinayotgan ishlab chiqarish obyekti hududida jihoz va materiallarni but va birinchi galda yetkazish, yuk va qurilish texnikasini tashish va taxlashni tashkil etishni hamda mobil (inventar) bino va inshootlarni joylashtirish shartlarini aniqlanishi.

3-§. Bino va inshootlarni mukammal ta'mirlash

48. Bino (inshoot)larda ta'mirlash ishlari amalga oshirilgandan so'ng mukammal ta'mirlash ishlarining tarkibi undan foydalanishga oid bo'lgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

49. Mukammal ta'mirlash ishlari konstruktiv va kompleks turlarga bo'linadi.

50. Mukammal ta'mirlash vaqtida bino yoki obyektning modernizatsiyasi (tarhiy yechimni yaxshilash, xizmatlar soni va sifatini oshirish, yetishmayotgan muhandislik uskunalari turlari bilan jihozlash) qilishga yo'l qo'yiladi.

51. Konstruktiv ta'mirlashda alohida konstruksiyalar, uzellar yoki konstruksiyalarning elementlarini tanlash asosida yoki to'liq almashtirish ishlari bajarilishi lozim.

52. Kompleks ta'mirlash vaqtida binoning barcha shikastlangan (eskirgan) konstruksiyalari va jihozlari birgalikda tiklanishi, shuningdek quyidagi ishlar amalga oshirilishi mumkin:

xonalarning ichki qayta tarhlanishi;

kommunal xizmatlar bilan ta'mirlash darajasi oshirilishi;

bino va obyektlarni yetishmayotgan yoki yangi turdagi muhandislik uskunalari bilan jihozlash;

hovli ichidagi muhandislik tarmoqlarini shartli-magistral quvur o'tkazgichlarga va ulardagi inshootlarga (nasos stansiyalari, issiqlik punktlari, gidravlik taqsimlash stansiyalari va boshqalarga) ulash chegaralarida yotqizish.

Bino va inshootlarni modernizatsiya qilishda bajariladigan asosiy ishlar ro'yxati ushbu ShNQning 1-ilovasida keltirilgan.

53. Binolarni mukammal ta'mirlashda mavjud binoni modernizatsiya qilish hamda muhandislik uskunalari tizimlarining elementlari yoki bino va obyektlarning qismlari (foydalanish ishlari bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun xonalar, inventar buyumlarni saqlash uchun xonalar, alohida turuvchi nasos stansiyalari, kompressorlar, telekommunikatsiya qurilmalarni joylashtirish uchun xonalar) sifatida qaraladigan yordamchi va xizmat ko'rsatish vazifalarini bajaruvchi yangi bino va inshootlarni qurishga yo'l qo'yiladi.

54. Binoni konstruktiv ta'mirlash qisqa muddatli prognozlash asosida yoki konstruktiv elementlarda va muhandislik tizimlarida to'satdan (kutilmaganda) yuzaga kelgan shikastlanishlarni tezkor tuzatish orqali amalga oshirilishi kerak.

55. Bino va inshootlarni mukammal ta'mirlash turi (qisqa, uzoq va konstruktiv) ularni tekshirish natijalari, bino, muhandislik jihozlari hamda tashqi obodonlashtirish dalolatnomalari, binoning texnik pasporti, shu jumladan yer uchastkasi dalolatnomasi, bino va inshootlarning tarhiy hamda konstruktiv xususiyatlari asosida, shuningdek ilgari o'tkazilgan ta'mirlash ishlari orasidagi muddatlarga muvofiq belgilanishi kerak.

56. Mukammal ta'mirlash vaqtida quyidagi turdagi ishlar bajarilishi lozim:

bino va inshootlarni (energetik va texnik) tekshirish, ishchi chizmalarini tayyorlash va yuk ko'taruvchi muhim konstruksiyalarni mustahkamlash bo'yicha loyihaviy (konstruktorlik) hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan ishchi loyihani tayyorlash;

bino va inshootlarning barqarorligini tiklash, oshirish, seysmik mustahkamlash, bino va inshootlarning eskirgan elementlarini, ularning jihozlarini almashtirish bo'yicha ta'mirlash-qurilish ishlari;

eskirgan konstruksiyalar va qismlarning nosozliklarini bartaraf etish;

tiklash yoki foydalanish va issiqlikdan himoya qilish hamda mustahkamlik xususiyatlarini oshiradigan va tejamkor konstruksiyalar qismlar bilan almashtirish;

binoning isitish tizimini ta'mirlash (to'suvchi konstruksiyalarning issiqlikdan himoya qilish xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ishlar);

muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarini almashtirish;

birlashtirilgan shamollatilmaydigan tomlarni shamollatiladigan qilib rekonstruksiya qilish (ishchi chizmalarga muvofiq).

57. O'tkazilgan mukammal ta'mirlash ishlarining natijalarini binoning texnik pasportlarida qayd qilish lozim.

58. Mukammal ta'mirlash vaqtida bajariladigan ishlar ro'yxati ushbu ShNQning 2-ilovasida keltirilgan.

4-§. Rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash ishlarini bajarish tartibi

59. Rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida eskirgan konstruksiyaviy elementlarni, xizmat muddati tugagan muhandislik tarmoqlari hamda uskunalarni bo'laklarga ajratish va almashtirish bo'yicha ishlarni, shuningdek obyektning ta'mirlashda qatnashuvchi barcha ishtirokchilarning o'zaro bog'langan faoliyatini rejali olib borilishini ta'minlash lozim.

60. Rekonstruksiya va mukammal ta'mirlashda umumiy tashkiliy-texnik tayyorgarlik ko'rish bosqichi quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

ta'mirlanadigan binoda sanitariya-texnik, elektr va gaz qurilmalarini asosiy tarmoqlardan uzish;

xavfli uchastkalarini to'siqlar bilan o'rab chiqish;

ta'mirlanadigan obyektlarni kirish yo'llari, demontaj qilingan konstruksiyalar va qurilish chiqindilarini hamda yangi qurilish materiallari va buyumlarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek vaqtinchalik elektr va suv ta'minoti tarmoqlari bilan ta'minlash;

obyektning bo'shagan maydonlarini, ishchilarga maishiy xizmat ko'rsatish xonalarini joylashtirish hamda qurilish materiallari va santexnika uskunalarini saqlash uchun moslashtirish.

61. Yirik obyektlarni (ko'p blokli binoni, shuningdek ish faoliyati to'liq to'xtatilmaydigan, istiqomat qiluvchilarni to'liq ko'chirib yuborishni imkoni bo'lmagan binoni) mukammal ta'mirlash alohida bloklar, seksiyalar, podyezdlar bo'yicha bajarilishi, bunda mazkur obyektlar bo'yicha mukammal ta'mirlashni tashkil qilish loyihalarida mukammal ta'mirlashning kalendar muddatlarini belgilash, santexnika uskunalarini keltirish, alohida bloklar, seksiyalar, podyezdlar bo'yicha qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash lozim.

62. Qurilish-ta'mirlash maydonchasida muhandislik tarmoqlari, kirish hamda piyodalar yo'lkalari, to'siqlar, foydalaniladigan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari, shuningdek buzish va demontaj ishlari bajarilgandan keyin chiqqan yaroqli materiallar hamda mahsulotlar but holatda saqlanishi lozim.

63. Ishlar tugallangandan so'ng maydonni vaqtinchalik inshootlardan bo'shatish, qurilish chiqindilaridan tozalashni o'z vaqtida amalga oshirish hamda ushbu hududlarda foydalanuvchilar harakatlanishi hamda dam olishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi lozim.

5-§. Bino va inshootlarni joriy ta'mirlash

64. Bino va inshootlarni joriy ta'mirlash ishlari qurilishi yakunlangan hamda foydalanishga topshirilgan obyektlarni foydalanish boshlangandan, ularni mukammal ta'mirlash zaruriyati yuzaga kelgunga qadar bo'lgan muddatda amalga oshiriladi, bunda bino va obyektlarni joriy ta'mirlashda ularning o'ziga xos konstruktiv jihatlari hamda foydalanish rejimlarini hisobga olish lozim.

Bino va uning elementlarini navbatdagi ta'mirlash hamda qurilish ishlarini olib borishga qadar samarali foydalanishning hisobiy-minimal davomiyligi ushbu ShNQning 3-ilovasida keltirilgan.

65. Joriy ta'mirlash obyektlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish talab qilinmasligi, bunda ishlar buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonlarga oid dalolatnomaga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

66. Bino va inshootlarni joriy ta'mirlash rejali va rejadan tashqari turlarga bo'linadi.

Bino va inshootlarni joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati ushbu ShNQning 4-ilovasida keltirilgan.

67. Rejali joriy ta'mirlash qisqa muddatli va uzoq muddatli prognozlash asosida tuzilgan grafik bo'yicha olib boriladi.

68. Rejadan tashqari joriy ta'mirlash binoning konstruktiv elementlari va muhandislik uskunalarining tizimlari (tarmoqlari)da kutilmagan tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelgan shikastlanishlarni tezkor tuzatish maqsadida amalga oshiriladi.

69. Bino va inshootlarni joriy ta'mirlash vaqtida muhandislik tarmoqlarini ta'mirlash talab etilmasa, joriy ta'mirlash binoga texnik xizmat ko'rsatishni, shuningdek issiqlik, suv, energiya ta'minotini to'xtatmasdan amalga oshiriladi.

70. Bino bir butun sifatida mukammal ta'mirlashga ehtiyoj bo'lmasa, joriy ta'mirlash ishlari mukammal ta'mirlash deb tasniflanadigan alohida ishlarni (binoning konstruktiv elementlarini almashtirish va modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi ishlar bundan mustasno) yo'l qo'yiladi.

6-bob. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish va ta'mirlashda xavfsizlik talablari

1-§. Seysmik hududlarda joylashgan bino va inshootlarga qo'yiladigan talablar

71. Nuqsonlarga ega bo'lgan va shikastlangan bino yoki inshootlarda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

rekonstruksiya qilinadigan konstruksiyalarda, ushbu konstruksiyalarning yuk ko'taruvchi qobiliyatini baholamagan holda, devor yoriqlari va ustki shikastlanishlarni yopib tashlashga;

devorlar yoki poydevorlardagi muhandislik kommunikatsiyalarining kirish joylarini mahkam yopib tashlashga;

7 — 10 ballik seysmik zonalarda gaz plitalarini (polga yoki devorga) mahkamlanmagan holda qoldirishga;

deformatsion va antiseysmik choklarni beton yoki devor terish yo'li bilan mahkam yopib tashlashga;

temir-beton elementlarning (ustunlar, rigellar, panellar, antiseysmik kamarlar va boshqalar) armaturasini ochib tashlashga (agar konstruksiyani mustahkamlash zaruriyati bilan yuzaga keltirilmagan bo'lsa);

72. O'ta murakkab obyektlarni zilziladan so'ng tiklashda, eski bino va inshootlarning zilzilabardoshlilikini oshirish uchun rekonstruksiya qilishda mavjud konstruksiyalarni ta'mirlash jarayonida ular ochilgandan so'ng ularning laboratoriya va instrumental sinov tahlillarining natijalariga ega bo'lish.

2-§. Shaharsozlik talablari

73. Turar joy binolariga tutash hududni (uchastkani) obodonlashtirishda, shu jumladan asfalt hamda toshli konstruksiyalarni yotqizishda, ko'kalamzorlashtirish tashkil etilishi, kichik arxitekturaviy shakllarni joylashtirishda piyodalarning xavfsiz harakatlanishi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun o'rindiqli aravachalarga mo'ljallangan panduslar bilan ta'minlanishi, shuningdek uchastka hududiga kirishi mumkin bo'lgan transport turlarining erkin harakatlanishi va burilish imkoniyatlari ta'minlanishi lozim.

74. Rekonstruksiya yoki ta'mirlash ishlari olib borilayotgan hududda piyodalar va transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi uchun doimiy sharoitlar yaratilishi, jumladan:

qurilish materiallari yoki jihozlar ko'chada yoki boshqa jamoat joylariga joylashtirilmasligi; piyodalar yo'lkasi ishlar olib borilayotgan hududga ulangan bo'lsa, u har doim piyodalar harakati uchun (xavfsizlik choralari ta'minlangan xolda) ochiq bo'lishi;

qurilish ishlari tufayli piyodalar yo'lkasining yopilishi talab etilsa, hech qanday to'siqlar bo'lmagan vaqtincha piyodalar yo'lkasi o'rnatilishi lozim.

7-bob. Qurilish-ta'mirlash ishlarining moddiy-texnik ta'minoti

75. Kirish nazorati orqali o'rnatilgan talablarga mos kelmasligi aniqlangan materiallar, mahsulotlar, konstruksiyalar, yarim tayyor mahsulotlar, uskunalar alohida ajratilgan holda saqlanishi va markalanishi hamda ushbu materiallar, mahsulotlar va asbob-uskunalarni qo'llash bilan bajarilayotgan ishlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

76. Loyiha-smeta hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar loyiha tashkiloti tomonidan ma'qullanganda, loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilgan tur, marka, fizik-mexanik va geometrik xossalardan farq qiluvchi xossalarga ega bo'lgan materiallar qo'llanilishi mumkin.

8-bob. Bino va inshootlarga texnik xizmat ko'rsatish

77. Bino va inshootlarga texnik xizmat ko'rsatish vazifalariga quyidagilar kiradi: joriy texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan bino (inshoot), uning elementlari va tizimlarini mavsumiy ishlashga tayyorlash;

joriy va mukammal ta'mirlashni o'z ichiga olgan ta'mirlash xizmati tizimi.

Bino va inshootlarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati ushbu ShNQning 5-ilovasida keltirilgan.

78. Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida bino va obyektlardan foydalanish xizmat ko'rsatish muddatlarini uzaytirish hamda qulaylik darajasini oshirish maqsadida fizik va ma'naviy jihatdan eskirgan konstruktiv elementlarni va muhandislik uskunalari tizimlarini almashtirilishi lozim.

Uy-joy (kvartira)larni qayta tarhlash va qayta jihozlash binodagi yuk ko'taruvchi konstruksiyalar mustahkamligi va zilzilabardoshligining pasayishiga yoki ushbu konstruksiyalarning buzilishiga olib kelsa, bunda qayta tarhlash va qayta jihozlash ishlarini olib borishga yo'l qo'yilmaydi.

Uy-joy (kvartira) egalari uchun yaratilgan qulay va shinam sharoitlar darajasini yanada oshirish maqsadida kvartiralarni qayta tarhlash va qayta jihozlashni kiritgan holda konstruktiv elementlar hamda muhandislik tizimlarining birgalikda (qo'shma tarzda) olib boriladigan modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga yo'l qo'yiladi.

79. Bino va obyektlarga texnik xizmat ko'rsatishda yashash va yashash uchun mo'ljallanmagan xonalarga (kvartiralar orasidagi zinapoyalar, liftlar, yo'laklar, tomlar, texnik yerto'lalar va umumiy foydalanishdagi boshqa obyektlar, muhandislik uskunalari va hovli oldi hududlarni obodonlashtirish elementlarini, kichik hovli muhandislik tarmoqlari) joriy xizmat ko'rsatish, ushbu xonalarni joriy va mukammal ta'mirlash va saqlash bo'yicha ishlarni o'z ichiga olishi kerak.

80. Rejali ko'riklarning davriyligi ushbu ShNQning 6-ilovasida, aniqlangan nosozliklarni tuzatish muddatlari esa mazkur ShNQning 7-ilovasida keltirilgan.

81. Umumiy texnik ko'riklar bahor va kuzda (kuz va qish mavsumi boshlanishidan oldin va ushbu mavsum oxirida) o'tkazilishi, bahorgi texnik ko'rikda binoning oldingi kuz-qish mavsumidagi foydalanish jarayonida aniqlangan nuqsonlar bartaraf etilishi, shuningdek joriy yilda ta'mirlash-qurilish ishlarini rejalashtirish uchun ishlar hajmi belgilanishi kerak.

Kuzgi texnik ko'rikda binoning kuz-qish mavsumida tayyorligi tekshiriladi va ta'mirlash-qurilish ishlari hajmi aniqlanishi lozim.

Bino va inshootlarni modernizatsiya qilishda bajariladigan asosiy ishlar ro‘yxati

1. Binoning barcha elementlarini termik qarshiligi (issiqlik modernizatsiyasi) bo‘yicha QMQ 2.01.04-18 talablariga javob beradigan holatga keltirish
2. Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun binoga kirish joylarini, shuningdek yuk ko‘tarish qurilmalari bilan jihozlangan kirish joylarini qurish.
3. Turarjoy binolarining tomlarini rekonstruksiya qilish, tomlarning konstruktiv yechimini o‘zgartirish (masalan, foydalaniladigan xonalarni qurmasdan yassi tomlarni nishabli tomlarga almashtirish).
4. Qo‘shimcha deraza o‘rinlarini va binoga kirish uchun yangi kirish joylarini qurish.
5. Isitish tizimlarini rekonstruksiya qilish.
6. Ventilatsiya va havoni konditsionerlash tizimlarini rekonstruksiya qilish yoki yangitdan qurish.
7. Sovuq va issiq suv ta’minoti, tashqi va ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti, isitish, kanalizatsiya, gaz ta’minoti tizimlari bilan jihozlash ishlari (ularni mavjud magistral tarmoqlariga ulagan holda).
8. Kuchaytiruvchi nasos stansiyalari, issiqlik uzellari, qozonxonalarni qurish.
9. Avtomatik yong‘in o‘chirish tizimlarini, yong‘in signalizatsiyasi, yong‘in haqida xabar berish, yong‘in va favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda odamlarni evakuatsiya qilish to‘g‘risida ogohlantirish va evakuatsiya qilish, tutunga qarshi shamollatish tizimlarini qurish (modernizatsiya qilish).
10. Mavjud elektr ta’minoti tarmog‘ini elektr jihozlarning butun tarmog‘ini almashtirish bilan (zarur bo‘lgan hollarda) yuqori hisobiy yuklamalarga o‘tkazish.
11. Past kuchlanishli telefon tarmoqlari va kabel televideniya tarmoqlarini o‘tkazish, eshiklarga kodli qulflar va domofonlarni o‘rnatish.
12. Lift shaxtasi, mashina bo‘limining konstruktiv yechimlarini, to‘xtash punktlari sonini, muhandislik ta’minotini o‘zgartirish bilan liftlarni almashtirish (modernizatsiya qilish).
13. Yashindan himoya qilish, erga ulanish, potentsiallarni tenglashtirish tizimlari va elektr energiyasini nazorat qilish hamda hisoblashning avtomatlashtirilgan tizimlarini yo‘lga qo‘yish.
14. Binoni shovqin va tebranishlardan himoya qilish.
15. Avtoturargohlarni tashkil etgan holda hovli o‘tish joylarini kengaytirish, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun to‘xtash joylarini tashkil etish.
16. Modernizatsiya ishlari bilan birgalikda olib boriladigan joriy va mukammal ta’irlashda bajariladigan ishlar.

Bino va inshootlarni mukammal ta’mir davrida bajariladigan ishlar ro’yxati

Poydevorlar va yerto’lalar

1. Binoning tashqi va ichki devorlari hamda ustunlari ostidagi poydevorlarni qisman qayta terish va kuchaytirish.
2. Poydevorning yerto’la tomonidan g’isht bilan pardozlab terilgan devorlarining ayrim joylarini (bitta joyda 10 tadan ortiq g’ishtni qayta terish bilan) ta’mir.
3. G’ishtli tsokollarni qayta terish.
4. Sokol va yerto’la qavatlarini derazalarining oldidagi chuqurlarning devorini qisman yoki to’liq qayta terib chiqish.
5. Yerto’la xonalari poydevorlarining gidroizolatsiyasini qurish yoki ta’mir.
6. Poydevor ostidagi gruntning suv bilan yuvilib ketishi (nurash, yemirilish) yoki namlanishdan himoya qilish maqsadida bino perimetri bo’yicha yangi qiya nishabli yo’lka (otmostka) yotqizish.
7. Mavjud drenaj tizimini tiklash yoki ta’mir, shuningdek yangi drenaj tizimini yoki binoning poydevorlari va devorlari tomon oqadigan suvni qaytarish ariqchalarini qurish.

Devorlar

8. Tosh devorlarni ta’mir va tsokol hamda devorlarning toshli pardoz qoplamasini (bir joyda 10 tadan ortiq pardoz plitkalarini terish bilan) ta’mir.
9. Emirilgan yoki tushib ketgan g’ishtlarni (bir joyda 10 tadan ortiq) terish.
10. G’ishtli tashqi (binoning ustki qurilgan qismi bilan bog’lanmagan) devorlarni to’liq yoki qisman qayta terib chiqish va mahkamlash.
11. Devorlarni tarang tortqilar va metall bog’lovchilar bilan mustahkamlash.
12. G’isht devorlardagi yoriqlarni shu devorlardagi eski g’isht terilmasini o’yish va tozalash bilan to’ldirish hamda choklarni bog’lagan holda yangi g’isht terilmasini tashkil qilish.
13. Poydevorning yuqori sathi bo’ylab butun gorizont tekislikka yotqizilgan gidroizolatsiya qatlamini tiklash.
14. Eski karnizlar, parapetlar, xavfsizlik devorlari, yerto’la deraza oldi chuqurlari va devorlarning chiqib turuvchi qismlarining g’ishtlarini qayta terish.
15. Foydalanishga yaroqsiz holatga kelib qolgan deraza va eshiklarni almashtirish.
16. Binoning eskirgan yog’och, tunuka va boshqa materiallardan ishlangan qoplamalari va qumli, chaqiq toshli, betonli va boshqalar to’shamalarini almashtirish.
17. Devorlarning yog’ochdan ishlangan karkaslarini yangi materiallardan foydalangan holda ta’mir.
18. Binoda poydevor tayanchlari orasidagi to’ldirmalarni zarur bo’lgan qoplamalarni o’rnatish va tsokol oldiga to’shamalar yotqizish bilan almashtirish.
19. Derazalar orasidagi eskirgan devorlarni va g’ishtdan tiklangan ustunlarni qayta terish, ta’mir yoki kuchaytirish.
20. Kontrforslarni va devorlarni mustahkamlovchi boshqa qurilmalarni ta’mir yoki kuchaytirish.
21. Binoning ustki qurilmalari bilan bog’lanmagan tashqi va ichki g’ishtli, temir-betonli va metall kolonnalarni ta’mir, kuchaytirish yoki almashtirish.
22. Toshli, temir-betonli va metall karkasli devorlardagi har xil turdagi to’ldiruvchilarni almashtirish.

Binoning fasadlari

23. Tashqi suvoq qatlamlarini tiklash va so’ngra bino fasadlarini bo’yash.

24. Bino fasadlarining ayrim joylaridagi pardozebop plitkalarini alohida yangi plitkalar bilan almashtirib tiklash yoki bu joylarni suvoq qilish hamda pardozebop plitkalar rangiga mos qilib bo'yash.

25. Karnizlarning naqshli tasmalari (tyagalari), sandriklar hamda bino fasadining boshqa chiqib turuvchi qismlarini tiklash va ularga qayta ishlov berish.

26. Suv oqizuvchi tarnov quvurlarini hamda bino fasadining chiqib turuvchi qismlaridagi barcha metall va sementli qoplamalarni butunlay almashtirish va yangilarini o'rnatish.

27. Bino fasadini atmosfera muhiti ta'sirlariga chidamli bo'lgan bo'yoqlar bilan to'liq bo'yash.

28. Binoning tomlari hamda balkonlaridagi eskirgan panjaralar va to'suvchi elementlarni yangisi bilan almashtirish.

29. Binoning tomlari hamda balkonlaridagi panjaralar va to'suvchi elementlarni yangisiga almashtirish.

30. Balkonlar, erkerlarning yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalarini almashtirish yoki kuchaytirish.

31. Ganchkorlik tasmalari va bezaklarini qayta tiklash.

32. Karniz nov (jyolob)larini va karnizlarning qoplamalarini almashtirish.

33. Fasادلarning pardoz qoplamasini almashtirish.

34. Binoning tashqi isitish tizimi tarkibidagi isitkich materiallarini montaj qilish uchun devorlarni tayyorlash.

35. Havо aylanadigan osma fasad tizimining yuk ko'taruvchi karkas elementlarini montaj qilish.

36. Havо aylanadigan fasadning pardozebop elementlarini montaj qilish.

37. Pardozlangan shtukaturka qatlamiga ega bo'lgan turarjoy binosining tashqi isitish tizimi tarkibida armaturalanadigan va himoya qiluvchi dekorativ qatlamni qurish.

38. Yog'ingarchilik va suv toshqini vaqtida bino hamda yer sathidan oquvchi suvlarini bexatar o'tkazish maqsadida irrigatsiya suv tarmoqlarini kapital ta'mirlash.

Pardadevorlar

39. Eskirgan parda devorlardagi hoshiya tasmalari (obvyazka) hamda taxtalarini almashtirish bilan ta'mirlash va qayta tiklash.

40. Eski parda devorlarni buzish va yangi parda devorlarni qurish.

41. Pardadevorlarning pardoz qoplamalarini ta'mirlash.

42. Pardadevorlarning tovush izolatsiyasini kuchaytirish.

Orayopmalar va pollar

43. Qavatlararo orayopmalar va chordoqlar yopmasining ayrim elementlarini yangisiga almashtirish yoki eskirgan elementlarini kuchaytirish.

44. Birinchi qavat poli tagidagi asoslar yoki g'ishtdan terilgan ustun tayanchlarni tuzatib, shu qavatning polini lagalar ustiga qayta yotqizish.

45. Orayopmalarning ayrim balkalarini almashtirish, balkalarning oxirgi qismlarini barcha ketma-ket bajariladigan ishlarni amalga oshirgan holda protezlar bilan uzaytirish.

46. Orayopmalar qayta tiklangan joylardagi pollarni almashtirish, betonli, asfaltli, sementli, toretsli, plitkali pollarni va yerto'la xonalaridagi pollarning asoslarini almashtirish.

47. Yashirin holatdagi kanallarning devorlarini ta'mirlash yoki almashtirish.

Tomlar va tomyopmalar

48. Stropila tayanchlari, mauerlatlar, fermalarning stropila elementlarini yoki ferma elementlarini va yopmalar ostidagi to'shamalarni almashtirish.

49. Tomning eskirgan konstruksiyalarini tol, ruberoid va boshqa tom yopish materiallari bilan qoplangan (o'ralgan) tayyor temir-beton elementlar bilan almashtirish.

50. Metalldan ishlangan tom to'siqlarini ta'mirlash yoki almashtirish.

51. Eskirgan yong'in zinapoyalarini ta'mirlash yoki almashtirish.

52. Tomga olib chiquvchi yangi tuynuklar, yorug'lik darchalari (sluxovoye okno) va ularga o'tish uchun xizmat qiluvchi ko'priklarni o'rnatish.

53. Yog'ochdan ishlangan tomni po'lat qoplamani boshqa tom yopish materiallari bilan almashtirish munosabati bilan qayta qurish.

54. Tomning taxtadan ishlangan konstruksiyalarini olovdan himoya qiluvchi vosita bilan ishlov berish choralarini ko'rish.

55. Tomga tutun chiqaruvchi va ventilatsiya quvurlarni qayta o'rnatish.

56. Devorga mahkamlanadigan nov (jyolob)lar, tutun chiqaruvchi quvurlar atrofidagi nishabliklar va qoplamalarni hamda tom ustidan chiqib turuvchi boshqa qurilmalarni almashtirish.

57. Yoritish fonarlarining yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini ta'mirlash va bo'yash.

58. Yoritish fonarlari ramalarining mexanik va qo'lda boshqariladigan qurilmalarini ta'mirlash.

59. Etarlicha yoritilganlikka ega bo'lmagan xonalarga yoritish fonarlarini o'rnatish.

60. Avariya holatidagi turarjoy uylarining po'lat tunkadan ishlangan tom qoplamasini (tunkalarni olmasdan turib) yumshoq tom yopish materiallari bilan almashtirish.

61. Isitilmaydigan chordoqdan isitiladigan xonalarni ajratib turuvchi to'suvchi konstruksiyalarga isitkich (uteplitel) qoplamasini o'rnatish yoki avvaldan mavjud bo'lgan isitish qoplamasini almashtirish.

62. Ventilatsiya kanallari va tutun chiqarish uchun xizmat qiluvchi moslamalarga isitish qoplamasi bilan o'rash yoki isitish qoplamasini almashtirish (avvaldan mavjud bo'lsa).

63. Isitilmaydigan chordoqqa joylashtirilgan isitish tizimi va issiq suv ta'minoti quvuro'tkazgichlarining isitgichlarini o'rnatish yoki almashtirish (agar avvaldan mavjud bo'lsa).

64. Chordoq xonalari havo almashtirish tizimini ta'mirlash (agar avvaldan mavjud bo'lsa) yoki yangisini o'rnatish (agar avvaldan mavjud bo'lmasa).

65. Isitilmaydigan chordoq xonalaridagi ventilatsiya teshiklarini ta'mirlash (agar avvaldan mavjud bo'lsa) yoki o'rnatish (agar avvaldan mavjud bo'lmasa).

66. Mavjud tom to'shamasini olish bilan pastki yangi tom to'shamasini qo'yish orqali shu tomni ta'mirlash.

67. Tomning bug' izolatsiyasini va issiqlik izolatsiyasini ta'mirlash yoki qurish.

68. Tom qoplamasining bitumli materiallarini zamonaviy bitumli-polimer materiallar, membranalar yoki o'ramsiz mastikali qoplamalarga almashtirish.

69. Karton asosli materiallar (3-5 qatlam qilib yotqizilgan) zamonaviy bitum-polimerli materiallar, polimerli membranalar yoki o'ramsiz mastikali qoplamalar bilan almashtirish.

70. Karton asosli materiallar (3-5 qatlam qilib yotqizilgan) 1-2 qatlam qilib to'shaladigan zamonaviy bitum-polimerli materiallar, polimerli membranalar yoki o'ramsiz mastikali qoplamalar bilan almashtirish.

71. Tomni 1-2 qatlamli bitum-polimerli gidroizolatsiyani qo'llab ta'mirlash.

72. Polimerli membranani qo'llash bilan tomni ta'mirlash.

73. Tomni uning eski asosi ustiga yelimlanuvchi yangi polimerli qoplamani yotqizish yo'li bilan ta'mirlash.

74. Yamoqlarni o'rnatish bilan polimerli membranadan ishlangan gidroizolatsiyaga ega bo'lgan tomni ta'mirlash.

75. Tomning suv oqizish tizimini ta'mirlash yoki yangi tizimni o'rnatish.

76. Tomning suv himoyalovchi to'shamasi ostidagi asosni ta'mirlash.

Zinapoya va balkonlar

77. Zinapoyalarning singan, ko'chgan pog'onalarini va maydonchalarini almashtirish.

78. Yog'och zinapoyalarni olovbardosh zinapoyalar bilan almashtirish.

79. Eshik va deraza usti to'sqichlarini yangisiga almashtirish.

80. Zinapoya marslari va maydonchalarini to'liq almashtirish.

81. Kosourlar, maydonchalarning balkalarini almashtirish yoki kosourlarning shikastlangan qismlarini payvandlash.

82. Zinapoya perilosini va perilo tutqichlarini almashtirish, ta'mirlash.

83. Balkonlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini ta'mirlash va almashtirish.

84. Zinapoya kataklarini shtukaturka, pol ta'mirini, zinalar va perilolarni ta'mirlash.

Derazalar va eshiklar

85. Derazalarni zamonaviy energiya tejaydigan derazalar bilan almashtirish.

86. Umumiy foydalanishdagi (umumiy mulkka tegishli bo'lgan) eshik kesaklari va tabaqalarini zamonaviy energiya va issiqlik tejovchi eshiklarga almashtirish.

87. Deraza alohida tabaqalarini oynalarini almashtirish va ta'mirlash.

88. Eshiklarni mahkamlash va ulardagi alohida qismlarni almashtirish bilan ta'mirlash.

Suvoq va bo'yash bo'yicha texnologik jarayonlar

89. Tizimni kapital ta'mirlash yoki yangi montaj qilishdan keyin isitish tizimi radiatorlari, quvurlari, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish, gaz ta'minoti quvurlarini moyli bo'yoq bilan bo'yash.

90. Umumiy foydalanishdagi joylar ichkarisidagi ganjkorlik detallarini qayta tiklash.

Markaziy isitish va ventilatsiya tizimlari

91. Yakka tartibda ishlaydigan qozonlar, nasoslar va ventilyatorlarni yangisiga almashtirish.

92. Yakka tartibda ishlaydigan qozonlarning qo'shimcha seksiyalarini, quvuro'tkazgichlarning ochish-yopish armaturasi hamda ayrim (alohida) uchastkalarini ta'mirlash va yangisini o'rnatish.

93. Isitish tizimi uskunalarini almashtirish, isitish tizimining qo'shimcha seksiyalari va yangi uskunalarini hamda xonalarga yangi ochish-yopish armaturalarini o'rnatish.

94. Yakka tartibda ishlaydigan qozonlarning tutun chiqaruvchi mo'riklarini almashtirish.

95. Quvurlarning izolatsiyasini almashtirish.

96. Markaziy isitish tizimi nasoslarining dvigatellarini almashtirish.

97. Yakka tartibda ishlaydigan qozonlar, boylerlar, elektrdvigatellar, nasoslar va ventilyatorlarni ularning uzellari hamda detallarini yechib olish va almashtirish bilan ta'mirlash.

98. Boylerlarni o'rnatish.

99. Markaziy isitish tizimining quvuro'tkazgichlarini almashtirish.

100. Pechkali isitish tizimi o'rniga markaziy isitish tizimini qurish.

101. Po'latdan ishlangan yakka tartibda ishlaydigan qozon, boyler, quruq bug' moslamasi, bakka yamoqlar o'rnatish.

102. Issiqlik almashtirgichlar, oldindan himoyalovchi dastakli klapanlarni almashtirish.

Iste'molchilarni gaz quvurlari SO, SO₂ va SN₄ gazlari konsentratsiyasini o'lchovchi gazanalizatorlar va o'chiruvchi klapanlari bilan ta'minlash.

103. Mukammal ta'mirlash yoki yangi isitish yoxud shamollatish tizimini o'rnatish bilan bog'liq barcha qurilish ishlari.

104. Vantuzlar (havo klapanlari), havo to'plagichlar va ochish-yopish-taqsimlash armaturasi mavjud bo'lmagan joylarga ularni o'rnatish yoki ishdan chiqqan vantuzlar, havo to'plagichlar va ochish-yopish-taqsimlash armaturasini almashtirish.

105. Metallardan tayyorlangan tutun chiqaruvchi quvurlarni ta'mirlash yoki almashtirish.

106. Yakka tartibda ishlaydigan qozonlar va boshqa uskunalar ostidagi poydevorlarni ta'mirlash yoki ular tagiga yangi poydevorlarni qurish.

107. Mavjud isitish va ventilatsiya tizimini ta'mirlash yoki yangi isitish va ventilatsiya tizimini qurish bilan bog'liq bo'lgan qurilish ishlarini olib borish.

108. Yangi yig'ma ventilatsion qutilarni qurish.

109. Yig'ma ventilya qutilarning uchastkalarini yangilari bilan almashtirgan holda shu qutilarni ta'mirlash.

110. Yangi ventilatsiya tizimini qurish, mavjud bo'lgan shunday tizimni qayta tiklash va qayta qurish.

111. Xonalardagi isitish uskunalarini issiqlik datchigi va termostatik jo'mraklar bilan jihozlash.

112. Isitish uskunalarining orqasidagi devor qismiga issiqlikni qaytaruvchi materiallarni (otrajatel) o'rnatish.

Issiq suv va ichimlik suvi ta'minoti oqova suvlarni chiqarib yuborish

113. Shikastlangan quvurlarni almashtirish.

114. Xonalar ichiga suv to'plovchi va tarqatuvchi yangi kolonkalarini o'rnatish.

115. Bino ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish tizimlari quvurlarini qayta yotqizish.

116. Binoni ta'mirlash vaqtida qo'shimcha sanitariya-texnik vositalarni o'rnatish.

117. Bino ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish tizimlarining qo'shimcha tarmoqlarini kiritish.

118. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish tizimini tiklash yoki yangisini o'rnatish hamda ularni ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulash.

Ulanish nuqtalarida hovli tarmoqlari yoki ko'cha tarmoqlarida qo'shimcha tekshirish kameralarini tashkil qilish.

119. Sanitariya moslamalarini (kranlar, issiq va sovuq suv aralashtirgichlar va boshqalar) va sanitariya-texnik priborlar (vannalar, rakovinalar, oshxona jihozlari, hojatxona unitazlari)ni almashtirish.

120. Nasos agregatlarini ta'mirlash va almashtirish.

121. Nasos stansiyalarini qurish.

122. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimini kapital ta'mirlash bilan bog'liq barcha qurilish ishlarini olib borish.

123. Bino poydevorlari va devorlari atrofidagi mavjud drenaj tizimi yoki suv oqizish kanalarini qayta tiklash yoki ta'mirlash, shuningdek yangi drenaj tizimi yoki suv oqizish kanallarini qurish.

Gaz ta'minoti

124. Gaz uskunasi asboblarini yangilariga almashtirish.

125. Gaz tarmog'iga ulangan kvartiralarga qo'shimcha gaz berilishini ta'minlash moslamalarini o'rnatish.

126. Alohida kvartiralarni gazlashtirish.

127. Gaz o'tkazgichlarning uchastkalarini almashtirish.

128. Gaz ta'minotini kapital ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan barcha qurilish ishlarini bajarish.

129. Iste'molchilarni gaz quvurlari SO, SO₂ va SN₄ gazlari konsentratsiyasini o'lchovchi gazanalizatorlar va o'chiruvchi klapanlari bilan ta'minlash.

Elektr yoritish va elektr simlari

130. Xonalardagi yoritgichlarni energiya tejaydigan yorug'lik diodli yoritgichlarga almashtirish.

131. Elektr qurilmalar (elektr o'chirgichlari, elektr ajratgichlar, shtepsellar, patronlar, rozetkalar va h.k.lar)ni almashtirish bilan elektr simlarini yangilash.

132. Elektr yoritishning qo'shimcha qurilmasini o'rnatish va uni elektr tarmog'iga ulash.

133. Guruhli taqsimlagichlar va oldindan himoyalovchi qutilar hamda shchitlarni yangisiga almashtirish.

134. Binolarning zinapoya kataklaridagi elektr yoritish tizimini avtomatlashtirish.

135. Elektr toki sarfini hisoblash priborlari va elektr o'rnatmalarini himoyalovchi qurilmalarni almashtirish.

Liftlar va dispetcherlik tizimlari

136. Belgilangan xizmat muddati tugagandan so'ng liftlar va dispetcherlik tizimlarining ishlash qobiliyatini tiklash uchun ularning asosiy tugunlari va detallarini to'liq (yoki qisman) almashtirish.

137. Liftlar va dispetcherlik tizimlarini almashtirish, periferik uskunalarni tiklash va dispetcherlik boshqarish pultini almashtirish.

138. Estetik holatini va texnik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida liftlarni modernizatsiya qilish bo'yicha ishlarini bajarish.

139. Uzellar va detallarni mukammal ta'mirlash bo'yicha ishlar.

140. Lebyodka:

lebyodkani almashtirish;

kanat-tortish shkivini, tarmoqli blok, shturvalni almashtirish;
reduktor va elektrdvigatelni almashtirish;
reduktor va elektrdvigatel podshipniklarini almashtirish;
liftni tayanch podshipniki bilan rostlash. Tormoz g'altagini yoki elektrmagnitni almashtirish;
tormoz qurilmasini almashtirish;
lebyodka osti ramasi amortizatorlarini va yarim muftalarni almashtirish.

141. Tortiladigan kanatli osmalar (TKO)ni boshqarish stansiyasi:

TKOni almashtirish. TKO uskunalari (transformatorlar, kontaktorlar relesi, elektr tokidan himoyalash qurilmasi, avtomatik elektr o'chirgichlar va boshqalar)ni almashtirish;

TKO elektr simlarini almashtirish.

142. Tezlikni chegaralovchi moslama, tortish qurilmasi, tutish tizimi mexanizmini almashtirish.

143. Liftga kiritish qurilmasi yoki uning butlovchi qismlarini almashtirish.

144. Lift shaxtasining uzellari va detallarini chaqirish apparatlarini almashtirish, bunda:

yorug'lik tablosi va yo'nalishlarni ko'rsatuvchi moslamalarni almashtirish;

tortish kanatlari almashtirish;

lift shaxtasining eshiklarini almashtirish;

shaxtaning elektr simlarini, klemmali qutilarini almashtirish;

shaxtalarining to'rsimon to'siqlari va metall konstruksiyalarini kuchaytirish, to'liq yoki qisman almashtirish;

buferli prujinalarni almashtirish;

rezinali zichlagichlarini almashtirish.

145. Muvozanatlovchi moslama:

muvozanatlovchi moslamani almashtirish;

muvozanatlovchi moslama ramasini almashtirish;

muvozanatlovchi moslama yukini almashtirish;

muvozanatlovchi moslamaning prujinalari va tortqilarini almashtirish;

muvozanatlovchi moslama boshmoqlarini almashtirish;

moylash apparatlarini almashtirish.

146. Kabina:

kabinani almashtirish;

kabina kupesi va karkasini almashtirish;

yuqori va pastki balkalarni almashtirish;

liftni boshqarish panelini almashtirish;

kabina elektr simlari va klemmali qutisini almashtirish;

kabina eshigi balkalarini va kabina eshiklarini harakatga keltiruvchi qurilma (elektrdvigatel, reduktor, yetaklash moslamasi, va sh.k.)larni almashtirish;

karetalari, tabaqalarini almashtirish;

pollar va ko'chuvchi pol mexanizmini almashtirish;

kupye poli va plafonini almashtirish;

harakatlanuvchi kabina eshigi tabaqasining rezinali zichlagichini almashtirish; moylash apparatlarini almashtirish.

147. Mashina xonasi (MX):

MXni yoritish qurilmasi elektr simlarini almashtirish;

MXga kirish moslamasini almashtirish.

148. Yashash xonalarida shovqinni kamaytirish bo'yicha bajariladigan ishlarga bog'liq holda lift uskunalarini demontaj va montaj qilish.

149. Aloqa tarmoqlarining shikastlangan kabelini almashtirish zaruriyati bilan bog'liq ishlar.

150. Liftlarni avtomatlashtirish va dispetcherizatsiyalash.

151. Ichki hamda tashqi tarmoqlarning kabellari muftalarini almashtirish va ta'mirlash.

152. Umumiy yoki alohida kabel jillarining o'tkazuvchanligini ularga kabellarning zaxira jillarini qo'shish bilan oshirish.

153. Belgilangan xizmat muddati tugagandan so'ng liftlar va dispetcherlik tizimlarining ishlash qobiliyatini tiklash.

Turli ishlar

154. Sug'orish tizimlarining qo'shimcha tarmog'i uchun uskunalari o'rnatish.

155. Pochta qutilarini almashtirish.

156. Sokol qavatidagi yashash xonalarining pol stahini 30 sm gacha balandlikka ko'tarish (erosti suvlarining yuqori sathlarda joylashganligi tufayli xonalarda yuzaga keladigan namlik ta'siridan qutulish maqsadida).

157. Yangi asfaltli trotuarlarni va bino atrofida otmoskalarni tiklash yoki qurish.

158. Kvartal ichidagi yo'llarni tiklash yoki yangisini qurish.

159. Bolalar uchun o'yin maydonchalarini, aholi uchun dam olish maydonchalarini qurish, mavze ichki hududlarini obodonlashtirish.

160. Hovlilarda shuningdek, mikrorayonlar chegaralari ichida sport maydonchalarini qurish.

161. Markaziy isitish tizimi quvurlarini yotqizish uchun mavjud kanallarni qayta tiklash yoki yangilarini qurish.

162. Maishiy chiqindilar quvuro'tkazgichi va uning chiqindi qabul qilish qutisini qayta tiklash.

Bino va uning elementlarini samarali foydalanishning hisobiy minimal davomiyligi

Bino elementlari	Mukammal ta’mirlashga qadar foydalanish davomiyligi (yillar)	
	Turar joy binolari	Kommunal va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajaruvchi normal va yaxshi foydalanish sharoitlariga ega bo’lgan bino va obyektlar
Poydevorlar		
Murakkab sement qorishmasida xarsang toshdan bajarilgan tasmasimon poydevorlar	50	50
Ohak qorishmasida xarsang tosh va g’ishtdan bajarilgan tasmasimon poydevorlar	50	50
Beton va temir-betondan tasmasimon poydevorlar	60	60
Xarsang tosh va betondan bajarilgan ustunlar	40	40
Qoziqli (svayali) poydevorlar	60	60
Devorlar		
Mineral tolali plita va sementli fibrolitdan bajarilgan isitish qatlamiga ega bo’lgan yirik panellar	50	50
Yengil betondan tayyorlangan bir qatlamli yirik panelli devorlar	30	30
Alohida mukammal holatda qurilgan toshli (qalinligi 2,5 — 3,5 g’ishtdan iborat bo’lgan g’ishtli) devorlar hamda murakkab va sementli qorishmada terilgan yirik blokli devorlar	40	40
Oddiy toshli (qalinligi 1,5 — 2,5 g’ishtdan iborat g’ishtli) devorlar	40	40
Yengil qorishmada g’isht, shlakoblok va chig’anoq toshlardan terilgan toshli devorlar	30	30
Yo’nilgan yog’och va bruslardan tiklangan devorlar	30	30
Yog’ochdan ishlangan yig’ma-shchitli karkasli-to’ldirilgan devorlar	30	30
Paxsali, somonli devor, qamish-karkasli devorlar	15	15
Germetik choklar		
Tashqi devor panellarining choklarini mastikalar bilan germetiklash: qotmaydigan mastikalar bilan germetiklash; qotadigan mastikalar bilan germetiklash.	8-15	8-15
Deraza (eshik) bloklarining choklarini, teshiklarning chetlarini mastikalar bilan germetiklash	25	25
Orayopmalar		
Temir-beton yig’ma plitali va quyma orayopmalar	65	65
G’ishtdan terilgan svodli orayopmalar yoki metall to’sinlar orasini beton bilan to’ldirib bajarilgan orayopmalar	65	65
Yog’och to’sinli yog’och orayopmalar (qavatlar orasidagi orayopmalar suvoq qilingan)	60	50

Yog'och to'sinli yog'ochdan ishlangan chordoq yopmasi	30	25
Yog'och to'sinlar bo'ylab yengillashtirilgan holda suvoqsiz bajariladigan orayopmalar	20	15
Metall to'sinlar bo'ylab bajariladigan yog'och orayopmalar	50	40
Chordoqli orayopmalarning isituvchi qatlamlari		
ko'pik betonli qatlam	25	20
ko'pik shishali qatlam	40	30
ko'pikli polistirol plitalar qatlami	20	15
sement fibrolitli qatlam	15	10
keramzitli yoki shlakli qatlam	40	30
mineral tolali qatlam	15	10
mineral tolali plitalardan bajarilgan qatlam	15	10
Pollar		
Beton asosli keramik plitkali pol	60	30
Sement temir-betonli pol	30	20
Marmar parchalaridan bajarilgan sementli pol	40	15
Yog'och taxtali pollar:		
orayopmalar ustiga quriladigan;	30	15
grunt ustiga quriladigan.	20	10
Parketli pollar:		
eman daraxti yog'ochidan tayyorlangan parketlar, reykalar (mastika)dan bajariladigan	60/50	30/25
qora qayin daraxti yog'ochidan tayyorlangan parketlar, reykalaridan (mastikada) bajariladigan pol	40/30	20/15
tog' teragi daraxti yog'ochidan tayyorlangan parketlar, reykalarini (mastika)ga yotqizish bilan bajariladigan pol	30/20	15/10
parket doskali pol	20	10
qattiq yog'och tolali plitadan ishlangan parketli pol	15	8
mastika va polivinilatsetatli mastikaga yotqiziladigan parketli pol	30	15
asfaltli pol	8	4
asosga ega bo'lmagan linoleumli pol	10	5
matoli yoki issiqlik izolatsiyalovchi asosga ega bo'lgan pol	20	10
polivinilxloridli plitkalaridan bajariladigan pol	10	10
Tosh plitali pollar:		
marmarli pol	50	25
granitli pol	80	40
Zinapoyalar		
Metall, temir-beton kosourlarga o'rnatiladigan zinalar yoki temir-beton plitali zinalarga va temir-beton zinapoya maydonchalariga ega bo'lgan zinapoya	60	40
Marmar parchalaridan bajariladigan zinalarga ega bo'lgan zinapoya	40	30
Yog'och zinali zinapoya	20	15
Balkonlar, lodjiyalar va ayvonlar		
Balkonlar:		

po'latdan ishlangan konsolli to'sinlar (ramalar) ustiga quyma temir-betondan yoki yig'ma plitalardan quriladigan balkonlar	40	40
po'latdan ishlangan konsolli to'sinlar (ramalar) ustiga yog'ochdan quriladigan balkonlar;	30	25
temir-beton to'sinlar — konsollar va orayopma plitalari ustiga quriladigan balkonlar	50	50
Balkon va lodjiyalarning to'siqlari:		
metall panjarali to'siq;	40	35
yog'och panjarali to'siq.	10	8
Balkonlar va lodjiyalarning gidroizolatsiya qilingan sementli yoki plitkali pollari	20	15
Asfalt pol	10	8
Yuk ko'taruvchi yog'och to'sinlari yog'och taxtalar bilan qoplangan balkon	20	15
Sinkalangan tom tunukasi bilan qoplangan yog'och pol	20	15
Qora po'lat tunukasi qoplangan yog'och pol	15	12
Ayvonlar:		
tosh yoki beton qoplamali betonli ayvon	20	15
yog'ochdan bajarilgan ayvon	10	8
Tom va tomyopmalar		
Yig'ma temir-beton elementlardan tashkil topgan stropila	80	80
Yig'ma temir-beton qoplamalar (nastillar)	80	80
Yog'och stropila va panjara	50	50
Ventilatsilanadigan va ventilatsiyalanmaydigan qo'shma tomlarning ko'pikli beton va ko'pikli shishadan ishlangan isituvchi qatlamlari	40/30	40/30
Keramzit yoki shlak qatlamli	40/30	40/30
Mineral tolali qatlamli	15/10	15/10
Mineral tolali plita qatlamli	20/15	20/15
Tomyopmalarning qoplamalari		
Sinkalangan po'lat qoplamalar	15	15
Qora po'latli qoplamalar	10	10
O'ramli materiallardan (3-4 qatlamda) bajariladigan qoplamalar	10	10
Keramik cherepitsali qoplamalar	60	60
Asbestsementli yassi listli va asbestsementli to'liqinsimon listli qoplamalar	30	30
Mastikali qoplamalar	10	10
Suv qochirish tizimi		
Suv oqizish quvurlari (tarnovlar) va fasad bo'ylab tsinkalangan po'latdan bajarilgan mayda qoplamalar	10	10
Fasad bo'ylab qora po'latdan bajarilgan mayada qoplamalar	6	6
Cho'yan quvurli ichki suv oqizish tarnovlari	40	40
Po'lat quvurli ichki suv oqizish tarnovlari	20	20
Polimer quvurli ichki suv oqizish tarnovlari	10	10
Pardadevorlar		
Suvoq qilinadigan shlakbetonli, betonli, g'ishtli	75	60
Gipsli, gipstolali	60	50

Yog'och karkas bo'yicha bajariladigan quruq suvoqli	30	25
Gipsokartonli	30	25
Eshik va derazalar		
Deraza va balkon to'ldirmalari (yog'och tabaqalar)	40	30
Metall tabaqalar	50	40
Polivinilxloridli tabaqalar	40	30
Eshik to'ldirmalari		
kvartira ichidagi	50	35
kvartiraga kirish joylaridagi	40	30
zinapoyaga kirish joylaridagi	10	7
jamoat binolaridagi	-	30/40
yengil metallardan bajariladigan tashqi/ichki vitrajlar	45	40
Isitish pechlari va oshxona o'choqlari		
Ko'mir yoqilg'isida isitiladigan oshxona pechlari	25	20
Tabiiy gaz yoqilg'isida isitiladigan oshxona pechlari	35	30
Gaz-mazut yoqilg'isida isitiladigan oshxona pechlari	30	25
Ventilatsiya		
Quyidagi materiallardan chordoqda bajariladigan shaxtalar va qutilar:		
shlakbeton plitalardan, beton va g'isht elementlaridan bajariladigan shaxtalar va qutilar	60	60
kigiz (namat) ustiga tom tunukasi qoplangan yog'och shchitlardan bajariladigan shaxta va qutilar	40	40
metall materiallardan tayyorlangan shaxta va qutilar	20	20
polimer materiallardan tayyorlangan shaxta va qutilar	25	25
Gips va shlakbeton plitalardan bajarilgan o'rnatma ventilatsiya so'rish kanallari	30	30
Matoli metall to'ri suvoq qilingan yog'och shchitli o'rnatma ventilatsiya so'rish kanallari	20	20
Ventilatsiya shaxtasi ostidagi tagliklar (poddonlar)	20	20
Ichki pardoiz		
Beton, tosh devor va pardadevorlar suvog'i	60	30
Yog'och devorlar va pardadevorlar suvog'i	40	20
Keramik plitkalar bilan qoplash	40	30
Quruq suvoqli qoplama	30	15
Xonalarda suvli tarkiblar bilan bajariladigan bo'yoq ishlari	4	2
Xonalarda yarim suvli tarkiblar (emulsiyalar) bilan bajariladigan bo'yoq ishlari	5	3
Zinapoyalarda suvli tarkiblar bilan bajariladigan bo'yoq ishlari	3	3
Zinapoyalarda yarim suvli tarkiblar (emulsiyalar) bilan bajariladigan bo'yoq ishlari	4	4
Suvsiz tarkiblar (moyli bo'yoqlar, alkalidli bo'yoqlar, emallar, loklar va boshqalar) bilan bo'yash		
devorlar, shiftlar, duradgorlik buyumlarini pardoqlash	8	2
pollarni pardoqlash	5	3

radiatorlar, quvuro'tkazgichlar, zinapoya panjaralarni bo'yash	4	4
Oddiy gulqog'ozlarni yelimlab yopishtirish bilan devorlarni pardoqlash	4	3
Yaxshi sifatli gulqog'ozlarni yelimlab yopishtirish bilan devorlarni pardoqlash	5	4
Gipsdan ishlangan o'ymakorlik detallari	10	8
Tashqi pardoqlar		
Qoplamalar:		
teksturali sementli plitkalar bilan qoplash	50	50
naqshli (to'shama) plitkalar bilan qoplash	30	30
tabiiy tosh bilan qoplash	60	60
Terrazit suvoq (shtukaturka)	50	50
G'ishtli devor yuzalarining suvog'i:		
murakkab qorishmali suvoq	30	30
ohak qorishmali suvoq	20	20
Yog'och yuzalarning suvog'i	15	15
Beton yuza uchun qorishma	15	15
Sementli o'ymakorlik detallari (betonga yopishtiriladigan)	30	30
Suvoq ustidan bo'yash (beton asos bo'yicha):		
ohakli tarkiblar bilan bo'yash	3	3
silikat tarkiblar bilan bo'yash	6	6
polimerli tarkiblar bilan bo'yash	6	6
kremniy organik bo'yoqlar bilan bo'yash	8	8
Yog'och yuzasini moyli bo'yoqlar bilan bo'yash	4	4
Tomyopmalarni moyli bo'yoq bilan bo'yash	4	4
Belbog'lar, sandriklar va deraza osti taxtalarini tsinkalangan po'lat list bilan qoplash	8	8
Belbog'lar, sandriklar va deraza osti taxtalarini qora po'lat list bilan qoplash	6	6
Izolatsiya tizimlari (qorishma)	25	25
Osma fasadlar (yuk ko'taruvchi elementlar)	35	35
Ichimlik suvi va kanalizatsiyaning ichki tizimlari		
Sovuq suv (ichimlik suvi) quvuro'tkazgichi:		
tsinkali po'lat quvurlardan bajarilgan quvuro'tkazgich	30	25
gazlangan qora quvurlardan bajarilgan quvuro'tkazgich	15	12
polimer quvurlardan bajarilgan quvuro'tkazgich	50	50
Kanalizatsiya quvuro'tkazgichi:		
cho'yan quvurlardan bajarilgan quvuro'tkazgich	40	30
keramik quvurlardan bajarilgan quvuro'tkazgich	60	50
polimerlardan quvuro'tkazgich	50	50
Suv quvuro'tkazgichlarining kranlari	10	5
Sanitariya tuguni kranlari	10	5
Qo'l yuvgichlar (yuvinish kranlari):		
keramikadan ishlangan yuvgichlar	20	10
plastmassadan ishlangan yuvgichlar	30	15
Sanitariya uzeli o'tirgichlari (unitazlari):		
keramikadan ishlangan o'tirgichlar	20	10
plastmassadan ishlangan o'tirgichlar	30	15

Suv oqizish bachoklari:		
yuqoriga joylashtiriladigan cho‘yan bachoklar	20	15
keramik bachoklar	20	15
plastmassa bachoklar	30	20
Emallangan cho‘yan vannalar	40	20
Emallangan po‘lat vannalar	25	15
Emallangan plastmassa vannalar	20	10
Oshxona yuvish moslamalari (moykalari va rakovinalari):		
emallangan cho‘yan moykalar va rakovinalar	30	15
emallangan po‘lat moykalar va rakovinalar	15	8
zanglamaydigan po‘latdan ishlangan moykalar va rakovinalar	20	10
Cho‘yandan tayyorlangan ochish-yopish buragichlari va ventillari	15	8
Latunli ventillar	20	10
Dush tag qo‘yilmalari (poddonlari)	30	15
Suv hisoblagichlar tugunlari	10	10
Issiq suv tizimi		
Issiqlik ta‘minotining yopiq tizimlarida issiq suv quvuro‘tkazgichi va gazli tsinkalangan po‘lat quvurlar (gazli qora po‘lat quvurlar)	20/10	15/8
Issiqlik ta‘minotining ochiq tizimlarida issiq suv quvuro‘tkazgichi va gazli tsinkalangan po‘lat quvurlar (gazli qora po‘lat quvurlar)	30/15	25/15
Suv aralashtirgichlar (smesitellar)	15	8
Sochiq quritgichlar:		
qora po‘lat quvurlardan bajarilgan sochiq quritgichlar	15	12
nikel qoplangan quvurlardan bajarilgan sochiq quritgichlar	20	15
po‘lat quvurlardan	30	25
cho‘yandan tayyorlangan ochish-yopish buragichlari va ventillari	10	8
latunli ventillar va tiqinli kranlar	15	12
Yog‘och kolonkalar	20	20
Quvuro‘tkazgichlarning izolatsiyasi	10	10
Tezkor suv isitgichlar	10	10
Isitish tizimi		
Cho‘yan/po‘lat radiatorlar:		
yopiq sxemalar bo‘lganda	40/30	35/25
ochiq sxemalar bo‘lganda	30/15	25/15
Po‘lat kaloriferlar	15	10
Konvektorlar	30	25
Quvuro‘tkazgichlar (tik turuvchi (stoyaklar):		
yopiq sxemalar bo‘lganda	30	25
ochiq sxemalar bo‘lganda	15	12
Quvuro‘tkazgichlar (tutun chiqarish yo‘llari):		
yopiq sxemalar bo‘lganda	20	12
ochiq sxemalar bo‘lganda	15	12
Ochish-yopish buragichlari	10	8
Ventillar	10	8

Uch yo'nalishli kranlar	10	8
Elevatorlar	30	30
Quvurlarning izolatsiyasi	10	10
Qozonlarning qoplamalari:		
po'lat qoplamalar	20	20
cho'yan qoplamalar	25	25
Qozon qoplamasi	6	6
Quti	15	15
Chiqindi tashish quvuro'tkazgichlari		
Yuklash qurilmalari, klapanlar	10	8
Chiqindilarni yig'ish kamerasi, ventilatsiya	30	25
Quvurli o'zak	60	50
Gaz uskunalari		
Uy ichidagi quvuro'tkazgichlar	20	20
Gaz plitalari	20	15
Suv isituvchi kolonkalar	10	7
Elektr jihozlari		
Kiritish-tarqatish qurilmalari	20	20
Hovli ichidagi taqsimlash shchitlariga ega bo'lgan magistrallar (kvartiralarini elektr energiyasi bilan ta'minlash tarmog'i)	20	20
Kvartira ichidagi yopiq holatda o'tkazilgan tarmoqlar	40	40
Kvartira ichidagi ochiq holatda o'tkazilgan tarmoqlar	25	25
Umumiy foydalanishdagi joylar uchun navbatchi yoritish tarmog'i	10	10
Ishlab chiqarish-texnik vazifalarni bajaruvchi xonalarni yoritish tarmoqlari	10	10
Lift o'rnatmalarining elektr ta'minoti tarmog'i	15	15
Tutun chiqarish tizimining elektr ta'minoti tarmog'i	15	15
Binoga ichki qurilgan markaziy isitish va qozonxonalar uchun ta'minot liniyasi	15	15
Maishiy elektr plitalar	15	10
Elektr priborlar (shtepselli rozetkalar, o'chirish murvatlari va boshqalar)	10	5
Birlashgan dispetcherlik tizimlari (BDT) jihozi		
Uy ichidagi aloqa va signalizatsiya tarmoqlari:		
simli o'tkazmalar	15	15
shchitoklar, datchiklar, qulflar, asboblari va boshqalar	10	10
telemexanik bloklar, masofadan boshqarish (pult)	5	5
So'zlashish aloqasining qulflanuvchi qurilmalari	5	5
Yong'in xavfsizligi bo'yicha avtomatik himoya	4	4
Teleantennalar	10	10
Tashqi muhandislik tarmoqlari		
Suv quvuro'tkazgichi:		
cho'yan quvurli quvuro'tkazgich	40	40
po'lat quvurli quvuro'tkazgich	15	15
polimer quvurli quvuro'tkazgich	50	50
Kanalizatsiya:		

cho'yan quvurlardan bajarilgan	40	40
keramik yoki asbessement quvurlaridan bajarilgan	30	30
polimer quvurlardan bajarilgan	50	50
Poliuretan ko'pik bilan oldindan izolatsiya qilingan issiqlik tarmoqlarining quvuro'tkazgichlari	30	30
Issiqlik tarmoqlarining po'lat quvuro'tkazgichlari	25	25
Gazo'tkazgichlar	20	20
Drenaj	30	30
Tashqi obodonlashtirish		
Avtomobil yurish joylari, trotuarlar, bino chetidagi to'shamalarining asfaltbetonli (asfaltli) qoplamalari	10	7
Trotuar plitkalaridan bajariladigan qoplamalar	10	10
Chaqiq toshli maydonchalar va bog' yo'laklari	5	6
Bolalar o'yin maydonchalarining jihozlari	5	4

Izoh:

1. "x" belgisi bilan binoning vazifasi bo'yicha ulardan foydalanishning butun davri davomida almashtirilmaydigan elementlar belgilangan.

2. Kommunal va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajaruvchi bino va obyektlarning asosiy funksional vazifalarni bajaradigan xonalaridagi og'ir foydalanish sharoitlarida 3-ustun ko'rsatkichlari tegishli texnik-iqtisodiy asoslar bo'lganda 25 foizgacha qisqartirilishi mumkin.

3. Yangi materiallardan yoki ushbu jadvalda ko'rsatilmagan materiallardan bajarilgan elementlarni almashtirish muddatlari ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki maxsus tadqiqotlar orqali aniqlanadi.

Joriy ta’irlash vaqtidagi asosiy ishlar ro’yxati

1. Yerto’laning, pastki qavatning poydevorlari va devorlari:
choklarni, yoriqlarni berkitish, devor qoplamalari, yerto’la, tsokollarni tiklash;
mahalliy deformatsiyalarni bartaraf etish, poydevorlarning shikastlangan qismlarini
mustahkamlash, tiklash, shamollatish tuynuklarini, yerto’lalarga kirish joylarini ta’irlash;
yerto’la va pastki qavat xonalari devorlari gidroizolatsiyasining ayrim qismlarini tiklash;
teshiklarni ochish (berkitish);
uskunalar (shamollatish, nasos va boshqalar) ostidagi poydevorlarni mustahkamlash
(o’rnatish);
shamollatish teshiklarini o’rnatish (berkitish);
chuqurlarni (priyamka), yerto’laga kirish joylarini ta’irlash;
bino otmostkasining ayrim qismlarini almashtirish;
yerto’la va pastki qavat xonalarida quvurlarning kirish joylarini germetizatsiyalash;
deformatsiyalarni kuzatish uchun devorlarga mayoqlarni o’rnatish;
yerto’lalarni tozalash va zararsizlantirish.
2. Devorlar:
yoriqlarini berkitish, choklarni yopish, maydoni 2 m² gacha bo’lgan yuk ko’taruvchi
devorlarning alohida uchastkalarining fasad qoplamasini tiklash, g’ishtlarini qayta terish;
yig’ma bino elementlarining tutash joylarini hamda bloklar va panellar yuzasidagi o’yiqlar
va yoriqlarni berkitish;
arxitekturaviy elementlarning tutash joylarini germetizatsiyalash va tiklash, yog’och devor
qoplamalarining qismlarini o’zgartirish (almashtirish);
donali materialdan bo’lgan tashqi va ichki devorlarni qisman qayta terish, shuningdek,
mahkamlash va mustahkamlash (binoning ustqurmasi bilan bog’liq emas), yog’och binoda alohida
arxitektura elementlarini o’zgartirish (ishlarning hajmi 25 foizdan oshmasligi kerak)*;
donali materialdan teriladigan devorlardagi eski devorni o’yish va tozalash hamda uning
o’rniga yangi devor terishni tashkil qilish bilan yoriqlarni berkitish*;
eski karnizlar, parapetlar, yong’inga qarshi devorlar va to’siqlarni (xavfsizlik devorlarini),
chuqurchalarni va devorlarning chiqib turadigan qismlarini tashqi suvog’ini tiklash va binoning
fasadlarini keyinchalik bo’yash bilan qisman qayta tiklash (konstruksiyalarni qisman qayta yotqizish
hajmi konstruksiyalarning umumiy hajmining 25 foizdan oshmasligi kerak)*;
teshiklarni ochish (berkitish);
yoriq-tirqishlarni berkitish, mustahkamlash, isitish (sovuq o’tmaydigan qilish),
yog’och devor qoplamalarining qismlarini o’zgartirish;
alohida ikki deraza yoki eshik o’rtasidagi devorlarni, kashaklarni, karnizlarni tiklash;
ayrim tushib ketgan toshlarni qorishma bilan o’rnatish;
3. Yopmalar:
yog’och yopmalarning alohida elementlarini qisman almashtirish yoki mustahkamlash;
yog’ochni chirishdan asrash;
choklar va yoriqlarni berkitish, shiftlarni mustahkamlash;
yuk ko’taruvchi yog’och konstruksiyalarni yong’indan himoya qilish*;
yakka tartibdagi turarjoy binolarida alohida yog’och yopma to’sinlarini almashtirish*;
yig’ma temir-beton yopmalarning birikish joylaridagi choklarni berkitish;
temir-beton konstruksiyalardagi chuqurchalar va yoriqlarni berkitish;
chordoq tomyopmalarini qo’shimcha issiqlik himoyasini amalga oshirish.
4. Tomlar va shiftlar:

yog'och stropila tizimining elementlarini kuchaytirish (mahalliy mustahkamlash);
yog'och konstruksiyalarni olovdan himoya qiluvchi vosita bilan ishlov berish choralari
ni ko'rish;

po'lat, asbest-sement va donali materiallardan bo'lgan tomlarni, shuningdek parapetning
tom konstruksiyasiga ulanish joylarini, ustunlarni qoplama konstruksiyasiga ulanishlarni,
shamollatish shaxtalaridagi nosozliklarni yo'q qilish bo'yicha barcha turdagi ishlar (tabiiy va
texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish vaqtida ularni almashtirish,
qoplamaning to'liq almashtirish bundan mustasno);

tom to'siqlari, qorni ushlab turuvchi panjaralar va suv oqib tushadigan quvurlarini
(tanovlarni) almashtirish, voronkalar hamda chiqindini ushlab turuvchi panjaralarning mahkamligi
va samaradorligini tekshirish, ularni ta'mirlash (zaruriyat mavjud bo'lganda), gidroizolatsiyaning sirt
va himoya qatlamlarini ta'mirlash, issiqlik izolatsiya qiluvchi qatlamni qisman almashtirish
(isitkichni quritish), izolatsiyalash qatlamini shamollatish uchun qo'shimcha havo nozullarini
o'rnatish bilan shamollatishni sovuq o'tmaydigan qilish va tiklash;

stropil oyoqlari, mauerlatlar (to'sinlar), stropil fermalari yoki tomning tagidagi fermalar
elementlari va pol to'sinlarini almashtirish*;

tomga chiqish tuynuklari va maxsus lyuklarni almashtirish va ta'mirlash, tomga yangi
tuynuklarni va ularga o'tish ko'priklarini o'rnatish*;

tomda mo'ri va shamollatish quvurlarini qayta o'rnatish*;

yong'inga qarshi zinapoyalar, narvonlar, tom to'siqlari hamda erga ulash moslamalarini
mustahkamlash, almashtirish, radio va televideniye ustunlari uchun radio va televideniye
antennalarini mahkamlash va boshqalar;

binoning tomlari va balkonlariga yangi panjara hamda to'siqlarni o'rnatish yoki
almashtirish*;

arxitektura elementlarining suv oqib ketadigan quvurlari va kichik elementlarining
qoplamalarini mustahkamlash;

o'ramli qoplamaning qisman almashtirish;

o'ramsiz qoplamali tomlarning alohida uchastkalarini almashtirish (tiklash);

o'ramli va o'ramsiz qoplamali tomlarning himoya va pardoqlash qatlamini o'rnatish yoki
tiklash.

5. Deraza va eshiklar, shaffof (yorug'lik o'tkazuvchi) konstruksiyalar:

alohida elementlarni (uskunalarni) va deraza hamda eshiklarni almashtirish, tiklash
(oynalarni qisman almashtirish, eshik panellarini mustahkamlash, zichlash, bo'yash), deraza, eshik
vitrajlarini yoki vitrinani (yog'och, metall va boshqalar) qisman almashtirish;

deraza romlari, eshik panellari va deraza tokchalarini bo'yash*;

oyna solish bilan deraza romlarining alohida tabaqalarini ta'mirlash;

prujinalar, tirgaklar va boshqalarni o'rnatish;

fortochkalarni (darchalarni) o'rnatish;

binoning derazalari, eshiklari va darvozalarini to'liq bo'yash;

yangi kesaklarni qisman o'rnatish.

6. Pardevorlar (to'siqlar):

yog'och pardevorlarning (to'siqlarning) alohida qismlarini mustahkamlash, kuchaytirish,
almashtirish;

plitalar pardevorlardagi yoriqlarni germetizatsiyalash va suvash, ularning alohida
uchastkalarini qayta yotqizish;

yangi pardevorlarni (to'siqlarni) bo'laklarga ajratish va o'rnatish*;

pardevorlarning tovush o'tkazmaydigan xususiyatlarini yaxshilash (qo'shni konstruksiyalar
bilan tutashgan joylarini germetizatsiyalash va boshqalar);

7. Zinapoyalar, balkonlar, shuningdek kirish joylari, yerto'lalar va yuqori qavatlarining
balkonlari ustidagi soyabonlar:

alohida bo'limlar va elementlarni tiklash yoki almashtirish;

zinapoyalar va maydonchalardagi chuqurchalarni, yoriqlarni germetizatsiyalash;

alohida zinalarni almashtirish;
metall suyanchiklarni (to'siqlarni), balkon panjaralarini, balkonlar va lodjiyalar uchun ekranlarni qisman almashtirish va mustahkamlash;
yog'och zinapoyalarning elementlarini qisman almashtirish;
beton va temir-beton plitalardagi chuqurchalar va yoriqlarni germetizatsiyallash;
pol qoplamasini tiklash;
ayvonlarning alohida elementlarini tiklash yoki almashtirish, yuqori qavatlarining kirish joylari, yerto'lalari va balkonlari ustidagi soyabonlarni tiklash yoki o'rnatish;
zinapoya va balkon panjaralari (to'siqlari) uchun tutqichlarni qisman yoki to'liq almashtirish.

8. Pollar:

alohida bo'limlarni almashtirish, tiklash;
taxta, parket, linoleum, beton va plitkali pollarni almashtirish, keyin bo'yash yoki mastika bilan ishqalash;
alohida sanitariya inshootlarida pollarning gidroizolatsiyasi qoplamani to'liq o'zgartirish bilan almashtirish (qurish);
sement, beton, asfalt pollar va pollar uchun tagliklardagi chuqurchalarni, yoriqlarni zichlash.

9. Ichki pardozlash:

Kirish joylarida, texnik xonalarda va boshqa yordamchi xonalarda alohida bo'limlarda devor, shift, pol qoplamalarini tiklash;
devor va shiftlarni yangidan yoki joylarda suvab qo'yish*;
shiftlarni ta'mirlash yoki devorlarni suvashdan keyingi bo'yash va devor qog'ozi (oboy) ishlari;

mukammal ta'mirlash yoki yangi o'rnatilgan ichki muhandislik tizimlarining metall qismlarini bo'yash;

devorlar va shiftlarni quruq suvoq bilan qoplash;

keramik yoki boshqa plitkalar bilan devor qoplamasini tiklash;

arxitekturaviy detallarini tiklash va mustahkamlash;

barcha xonalarda barcha turdagi suvoq va bo'yash ishlari.

10. Tashqi pardozlash:

fasadlarni tozalash, yuvish, ta'mirlash va bo'yash;

suvoq va plitkali qoplamaning uchastkalarini tiklash;

yiqilish xavfi bo'lgan arxitekturaviy detallarni mustahkamlash yoki fasaddan olib tashlash, qoplama plitkalari, alohida g'ishtlar, bino fasadining arxitektura va dekorativ elementlarini tiklash;

derazalar, eshiklar, balkon to'siqlari, parapet panjaralari, suv oqib tushadigan quvurlari va boshqalarni bo'yash;

uy belgilarini tiklash.

11. Markaziy isitish:

markaziy isitishning ichki qismlari elementlarining alohida elementlari va qismlarini tozalash, o'rnatish, almashtirish hamda ishga yaroqliligini tiklash, shuningdek isitish punktlarida alohida berkitish va boshqarish moslamalarini almashtirish, issiqlik energiyasini hisobga olish asboblarini tekshirish;

quvurlarning alohida uchastkalarini, bo'laklarini, isitish moslamalarini, berkitish va nazorat qilish armaturalarini o'zgartirish;

havo kranlarini o'rnatish (agar kerak bo'lsa), nasoslar uchun elektr motorlarini almashtirish;

buzilgan issiqlik izolatsiyasini tiklash, tizimni gidravlik sinovdan o'tkazish va yuvish;

isitish moslamalarini (ustun bo'yab) va umumiy isitish tizimlarini yuvish, isitish tizimlarini rostlash (boshqarish) va sozlash;

issiqlikni hisoblash asboblarini rostlash va sozlash, yaroqsizlarini almashtirish.

12. Shamollatish:

alohida bo'limlarni o'zgartirish va shamollatish kanallarida nozichliklarni bartaraf etish;

ichki shamollatish tizimlarini, shu jumladan ventilyatorlar va ularning elektr uzatmalarini almashtirish hamda ish qobiliyatini tiklash, shuningdek shamollatish kanallarini tekshirish, tozalash, shamollatish panjaralarini mustahkamlash;

havo klapanlari va boshqa jihozlarni almashtirish, deflektorlarni, quvur boshlarini ta'mirlash va almashtirish;

avtomatik yong'in o'chirish va tutunni yo'qotish tizimlarini ta'mirlash va sozlash.

13. Suv ta'minoti va suvni qochirish (chetlatish):

alohida elementlar va elementlarning qismlarini, berkitish va boshqarish moslamalarini o'rnatish, almashtirish va ishga yaroqliligini tiklash, qisman almashtirish bilan suvni qochirish agregatlarini tozalash, suvni qochirish tizimlari, issiq suv ta'minoti, shu jumladan nasos agregatlarining germetikligini tiklash;

tutash joylarni germetizatsiyalash, quvurlarni issiqlik izolatsiyasi bilan qoplash va mustahkamlash, quvurlar, bir qolipdagi qismlar, sifonlar, traplarning alohida uchastkalarini o'zgartirish, qayta ko'rib chiqish;

quvurlarning buzilgan issiqlik izolatsiyasini tiklash, tizimni gidravlik sinovdan o'tkazish, tiqilib qolishlarni bartaraf etish;

alohida suv olinadigan kranlar, jo'mraklar, dushlar, berkitish armaturalarini almashtirish;

chordoqlardagi suv bosimini hosil qiladigan idishlarning armaturalarini almashtirish va sovuq o'tmaydigan qilish;

hovlilar va ko'chalarni sug'orish uchun alohida uchastkalarni almashtirish va suvo'tkazgichlarning tashqi suv chiqarish joylarini uzaytirish;

yong'in o'chirish gidrantlarini va ichki yong'in o'chirish kranlarini almashtirish;

alohida nasoslar va kam quvvatli elektr motorlarni ta'mirlash va almashtirish;

vannalar uchun alohida agregatlarni yoki suv isitish asboblarni almashtirish, mo'rilarni mustahkamlash va almashtirish;

mo'rilarni mustahkamlash va almashtirish;

suv isitkichlari va zigzagsimon shakldagi isitkichlarni quyqa va cho'kindilardan tozalash;

hovlining suvni qochirish tizimini, drenajni tozalash;

korroziyaga qarshi qoplama, markalash;

nazorat klapanlarini (sozlash armaturalarini) ta'mirlash yoki almashtirish;

suv ta'minoti va suvni qochirish tizimlarini yuvish;

yaroqsiz nazorat-o'lchov asboblarni almashtirish;

suv hisoblagichlarini tekshirish, kalibrlash, rostlash va sozlash, yaroqsizlarini almashtirish;

shikastlangan hojatxonalar (unitazlar), yuz-qo'l yuvgichlarni, oshxona rakovinalarini va pissuarlarni almashtirish.

14. Elektrotexnik va past tokli qurilmalar:

binoning elektr ta'minotini o'rnatish, almashtirish va ishga yaroqliligini tiklash;

yaroqsiz elektr simlarini almashtirish;

bino elektr tarmog'ining nosoz uchastkalarini almashtirish, shuningdek yangilarini o'rnatish;

statsionar elektr pechkalarining xonadon ichidagi guruh elektr uzatish liniyasining shikastlangan qismlarini almashtirish;

ishdan chiqqan uzgichlar, shtepsel rozetkalarini va boshqalarni almashtirish;

ishlamay qolgan lampalarni, shuningdek o'rab turgan chiroqlar va bayram yoritkichlarini almashtirish;

saqlagichlarni, avtomatik uzgichlarni, kirish-tarqatish moslamalarining qatlamli almashlab ulagichlarini, shchitlarni almashtirish;

bino yoritgichlarini avtomatik va masofadan boshqarish uchun foto uzgichlarni, vaqt releini va boshqa qurilmalarni almashtirish va o'rnatish;

elektr motorlarini va texnik qurilmalarning elektr o'rnatmalarining alohida birliklarini almashtirish;

ishdan chiqqan yondirgichlarni, almashlab ulagichlarni, qovurish javonlarining qizdirgichlarini va statsionar elektr pechkalarning boshqa almashtiriladigan elementlarini almashtirish;

ishdan chiqqan statsionar elektr pechkalarni almashtirish;

o'lchash asboblarini almashtirish;

uy ichidagi aloqa va signalizatsiya tarmoqlarini, asboblarni va boshqalarni markaziy isitishning ishlashini avtomatik boshqarish tizimlarini almashtirish yoki o'rnatish;

nazorat xonalari (dispetcherlik) texnik qurilmalarini ulash;

ichki markaziy isitish va suv ta'minoti tizimlarining metall quvurlarini korroziyadan himoya qilish elektr qurilmalarini ta'mirlash;

radio tarmoqlarini, telefon qurilmalarini ta'mirlash va o'rnatish, turarjoy binolarida jamoaviy foydalanish uchun televizion antennalarni o'rnatish;

erga ulash (zazemleniye) zanjirlarini tiklash;

ishlamay qolgan datchiklar simlar va yong'in hamda xavfsizlik signalizatsiya uskunalarini almashtirish.

15. Liftlar:

shaxtadagi elektr yoritish tarmog'ini, shuningdek maydonchalar va ko'targichlarga yaqinlashishlar, shaxta to'siqlarini kichik ta'mirlash, saqlagich plastinkalarini almashtirish;

eshik qulflarining to'g'ri ishlashini tartibga solish;

kontaktlarni va "To'xtatish" tugmachalarini kichik ta'mirlash;

arqonlarning burmalarini tekislash;

elektromagnit tormoz va ushlagichlarni, chegara uzgichlari va kontaktlarini ta'mirlash.

16. Boshqa ishlar:

yerto'la derazalarini to'suvchi metall panjaralarni mustahkamlash va o'rnatish, yerto'laga kirishlar ustidagi soyabonlarni mustahkamlash;

markaziy isitish quvurlari, shamollatish kanallari va boshqalar orqali chordoqdagi yangi o'tish joylarini tiklash va o'rnatish;

uy belgilarini, bayroq ushlagichlarni mustahkamlash va o'rnatish;

domofonlarni o'rnatish va ta'mirlash;

barcha turdagi uy ichidagi jihozlarini sozlash;

gaz plitalarini ta'mirlash.

Izohlar:

har bir holatda joriy ta'mirlash vaqtidagi ishlar ro'yxati buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi;

** — tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda joriy ta'mirlash doirasida amalga oshirilishi belgilangan ishlar.*

Bino va inshootlarga joriy texnik xizmat ko’rsatish bo’yicha asosiy ishlar ro’yxati

Alohida elementlar va xonalarni tekshirish vaqtida bajariladigan ishlar

1. Suv o’tkazish va oqova suvlarni oqizish tizimlaridagi sezilarsiz (kichik) nosozliklarni (suv o’tkazish quvuro’tkazgichlari kranlaridagi qistirmalarni almashtirish, zichlagichlarni jipslashtirish, tirqishlarni to’ldirish, sanitariya uzellaridagi suv oqizish bachoklarini rostlash, sanitariya-texnik priborlarni mahkamlash, sifonlarni tozalash, suv aralashtirgichdagi tiqinli kranlarni artish, jipslashtirgichlar (salniklar)ni tiqish, shar shaklidagi suzgichni almashtirish, rezina qistirmalarni almashtirish, cheklagichlar-drosselli shaybalarni o’rnatish, baklarni ohak cho’kindilaridan tozalash va boshqalarni) tuzatish, priborlarning quvuro’tkazgichga ulangan joylaridagi turg’unligini yo’qotgan (qimirlab qolgan) priborlarni mahkamlash, quvuro’tkazgichlarni mustahkamlash.

2. Markaziy isitish va issiq suv ta’minoti tizimlarida kichik nosozliklarni tuzatish (uch yo’nalishli kranlarni rostlash, salniklarni tiqish, issiqlik izolatsiyasini kichik hajmda ta’irlash va boshqalar).

3. Po’latdan yasalgan radiatorlardan suv tomchilaganda ularni almashtirish, havo to’plagichlar, sanitariya uzellari, kompensatorlar, rostlovchi kranlar, ventillar, burama berkitgichlarni yechish, ko’zdan kechirish va cho’kindilardan tozalash, ochish-yopish armaturasini cho’kindilardan tozalash va boshqalar.

4. Quvuro’tkazgichga ulanish nuqtalarida mahkamlanganligi zaiflashib qolgan priborlarni mahkamlash, quvurlarni mustahkamlash.

5. Elektromexanik qurilmalarning kichik nosozliklarini tuzatish (umumiy foydalanish joylarida kuygan chiroqlarni, shtepselli rozetkalar va o’chirish tugmalarini almashtirish yoki ta’irlash, elektr o’tkazmalarini kichik ta’irlash va boshqalar).

6. Quduqlarni ta’irlash.

7. Kanalizatsiya so’rgichlaridagi nosozliklarni tuzatish.

8. Ventilatsiya kanallarida tutun tortilishini tekshirish.

9. Vannalarning erga ulanganligini tekshirish.

10. Pechlar va o’choqlarni kichik ta’irlash (o’txona eshiklari va qiziydigan listlarni mahkamlash va boshqalar).

11. Gorizontall kanalizatsiya quvurlarini tozalash.

12. Teshiklar (tirqishlar)ni, po’lat tunukadan ishlangan tomyopma qirralarining uchastkalarini qo’rg’oshinli bo’yoq bilan to’ldirib yamash.

13. Uskuna (nasoslar, shchitli ventilyatorlar)ning erga ulanganligini tekshirish.

14. Zina maydonchalari, texnik yerto’lalar va chordoqlardagi chiroqlarni artish va almashtirish.

15. Elektr o’tkazmalaridagi kichik nosozliklarni tuzatish.

16. Shtepselli rozetkalar va qo’shish tugmalarni almashtirish.

17. Konstruksiyalar hamda ular atrofidagi gruntlarning texnik va dinamik holati monitoringi tizimlari (stansiyalar)ning ishlash qobiliyatini ta’minlash (agar bunday tizimlar o’rnatilgan bo’lsa).

Binoni bahor-yoz davrida foydalanishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlar

18. Balkon hamda balkon panjaralarini mustahkamlash va ta’irlash.

19. Suv oqizish tarmovlari, tirsaklarni mahkamlash.

20. Sug’orish tizimini rekonservatsiya qilish va ta’irlash.

21. Markaziy isitish tizimini konservatsiyalash.

22. Bolalar va sport maydonchalari jihozlarini ta’irlash.

23. Trotuarlar, piyodalar yo’laklari, otmostkalarni ta’irlash.

24. Sug’orish tizimlarining qo’shimcha tarmog’ini qurish.

25. Bayroq tutqichlarini mahkamlash.
26. Ko'chma jamoat hojatxonalarini konservatsiya qilish (tozalash, dezinfeksiya qilish, jihozlarni yuvish, bo'yash, resorlarni yuksizlantirish, jihozlarni rostlash).
27. Sokollardagi shamollatish tuynuklari va ventilatsiyani ochish bo'yicha ishlar.
28. Yerto'lalar, tomlar, fasadlar va pollarni tekshirish hamda ulardagi nosozliklarni bartaraf etish.

29. Suv oqizish tizimlarini tozalash (zarur bo'lgan hollarda).

Kuz-qish mavsumida foydalanishga tayyorgarlik ko'rishda bajariladigan ishlar

30. Deraza va balkon teshiklarini isitkichlar bilan qoplash (izolatsiyalash).
 31. Derazalar, eshiklarning singan oynalari va singan shishabloklarni almashtirish.
 32. Kvartiralarga kirish eshiklarini isitgichlar bilan qoplash.
 33. Chordoqlarning orayopmalarini ta'mirlash va isitkichlar bilan qoplash.
 34. Chordoq va yerto'la quvuro'tkazgichlarini ta'mirlash va isitgichlar bilan qoplash.
 35. Parapet to'siqlarini mustahkamlash va ta'mirlash.
 36. Balkon va balkon panjaralarining ishonchli mahkamlanganligini tekshirish.
 37. Chordoqlarning derazalarni oynavandlash va yopish.
 38. Yerto'lalarning derazalarini oynavandlash.
 39. Chordoqlar, yerto'lalardagi mavjud yurish taxta yo'laklarini ta'mirlash va yangi shunday yo'lak taxtalarini tayyorlash.
 40. Suv ta'minoti va markaziy isitish tizimlarini ta'mirlash, rostlash va sinovdan o'tkazish.
 41. Pechlar va oshxona o'choqlarini ta'mirlash.
 42. Markaziy isitish tizimining suv isitish qozonlarini ta'mirlash va isitkichlar bilan qoplash.
 43. Gaz yordamida suv isitish kolonkalari va isitish qozonlariga tegishli bo'lgan tutun chiqarish kanallarini ta'mirlash, isitkichlar bilan qoplash va tozalash.
 44. Singan shisha bloklarni, derazalar va kirish eshiklari hamda yordamchi xonalar eshiklarining singan oynalarini almashtirish.
 45. Sug'orish tizimlarini konservatsiyalash.
 46. Bayroq tutqichlari va binoning tartib raqam belgilarini mahkamlash.
 47. Binoning tsokollaridagi shamol kiradigan tirqishlarni yamash.
 48. Tashqi suv kranlari va kolonkalarini ta'mirlash hamda izolatsiyalash.
 49. Kirish eshiklaridagi prujinalarini ta'mirlash va mahkamlab o'rnatish.
 50. Kirish eshiklarini ta'mirlash va mustahkamlash.
 51. Ko'chma jamoat hojatxonalarini konservatsiya qilish (tozalash, dezinfeksiya qilish, jihozlarni yuvish, bo'yash, priborlarni yechib olish va suvni oqizish, quritish, resorlarni yuksizlantirish, ya'ni bo'shatish).
- Boshqa ishlar**
52. Sinov vaqtida markaziy isitish tizimlarini rostlash va ishga tushirish.
 53. Xuddi shunday, ventilatsiya tizimlarini ham rostlash va ishga tushirish.
 54. Quvuro'tkazgichlar, ochish-yopish armaturasi va burama berkitgichlardagi suv tomchilashini bartaraf etish.
 55. Quvuro'tkazgichlar, ochish-yopish armaturasi va burama berkitgichlarning alohida (ayrim) uchastkalarini almashtirish.
 56. Isitish tizimlarini yiliga kamida bir marta siqilgan havo bilan bosim ostida tekshirish (opressovkalash) va suv yordamida yuvish.
 57. Suv baklarini tozalash va yuvish.
 58. Muhandislik uskunalari bilan avtomatik boshqarish tizimlarini rostlash va ishga tushirish.
 59. Quduqlarni tozalash.
 60. Suv oqizish tizimlarini mavsumiy foydalanishga tayyorlash.
 61. Tomlardan qor va muzni olib tashlash.

ShNQ 1.04.03-23 “Bino va inshootlarni
rekonstruksiya qilish ta’irlash va ularga
texnik xizmat ko’rsatishni tashkil etish”
shaharsozlik normalari va qoidalariga
6-ILOVA

Bino hamda obyektlar elementlari va xonalarini ko’rikdan o’tkazishning davriyligi

Bino yoki obyektlarning ko’rikdan o’tkaziladigan elementlari va xonalari	Ko’riklarning davriyligi, oylarda	Izoh
Tomlar	3-6 ^x	-
Yog’och konstruksiyalar va duradgorlik buyumlari	6-12 ^x	-
Tosh-g’ishtli konstruksiyalar	12	-
Temir-beton konstruksiyalar	12	-
Yig’ma konstruksiyali binoning panellari va panellar orasidagi choklar	12	-
Yig’ma konstruksiyali binodagi korroziyadan himoyalangan po’lat mahkamlash detallari	Foydalanish boshlangandan 10 yil o’tgach, keyin har 3 yilda	5-6 ta uzelni ochish yo’li bilan o’tkaziladi
Korroziyaga qarshi himoyalangan po’lat mahkamlash detallari	15 yildan so’ng, keyin har 3 yilda	5-6 ta uzelni ochish yo’li bilan o’tkaziladi
Pechlar, oshxona o’choqlari, tutun yo’llari, tutun chiqarish quvurlari	3	Isitish mavsumi boshlanishidan oldin hamda mavsum davomida ko’zdan kechiriladi va tozalanadi
Gaz quvurlari	3	-
Ventilatsiya panellari	12	-
Shuningdek, gaz priborlari o’rnatilgan xonalardagi ventilatsiya panellari	3	-
Ichki va tashqi pardozlash	6-12 ^x	-
Pollar	12	-
Zinapoya kataklaridagi derazalarning panjaralari va zinapoya to’siqlarining tutqichlari (perila)	6	-
Sovuq suv ta’minoti, kanalizatsiya, issiq suv ta’minoti tizimlari	3-6 ^x -	-
Markaziy isitish tizimlari: kvartiralar hamda kommunal va ijtimoiy-madaniy obyektlarning asosiy funksional xonalarida; chordoqlarda, yerto’lalarda, zinapoyalarda	2	Isitish mavsumi davrida o’tkaziladi
Issiq suvni kiritish joylari, qozonxonalar va qozonxona uskunlari	2	-
Hisoblagichlarning guruhli priborlari: suv (sovuq, issiq), issiqlik	Yiliga kamida 2-marta	-
Issiqlik energiyasini rostlovchi priborlar	Yiliga kamida 2-marta	-
Maishiy axlat quvurlari	har oyda	-
Elektr jihozlari:		-
ochiq elektro’tkazmasi;	3	-

yopiq elektro'tkazmalari, po'lat quvurlar ichidan o'tadigan elektr o'tkazmalari	6	
Oshxona elektr plitalari	6	-
Yordamchi xonalar (zinapoyalar, vestibyular) dagi chiroqlar va boshqalar	3	-
Tutunga qarshi shamollatish va yong'inga qarshi avtomatika tizimlari	har oyda	-
Domofonlar	har oyda	-
Uy ichidagi tarmoqlar, BDT jihozlari va boshqaruv panellari	3	-
Uy isitish qozonxonalar va qozonlari, ustaxonalar, suv nasoslari, fekalli va drenaj nasoslarining elektr uskunalari	2	-
Kvartiralarining yashash va yordamchi xonalari: kommunal va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajaruvchi obyektlarning zinapoyalari, vestibyullari, yerto'lalari, chordoqlari va boshqa yordamchi xonalari	12	-
Uylarning tartib raqamlari (nomerlari), ma'lumot beruvchi belgilar va ko'cha nomi yozilgan taxtachalar, kirish joylaridagi raqamlar, uylarning pasportlari	6 — 12*	-

Izoh:

x) ko'riklarning muayyan vaqt oraliqlarida belgilangan davriyligi binoning texnik holati va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda bir yilda bir martadan kam bo'lmagan holda foydalanuvchi tomonidan belgilanadi;

kommunal va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajaruvchi obyektlarning muhandislik va texnologik jihozlari maxsus turlari ko'riklarining davomiyligi ushbu obyektlarni foydalanuvchisi tomonidan belgilanadi.

Bino va obyektlar elementlarining nosozliklarini tuzatish muddatlari

Bino elementlarining nomi va nosozliklar	Nosozliklarni tuzatishning chegaraviy muddati (ular aniqlangan vaqtdan boshlab, sutkalarda)
1	2
Tom (krovlya)	
Suv tomchilashi	1
Tashkil etilgan suv oqizish tizimidagi nosozliklar (suv oqizish quvurlari, voronkalar va boshqalar)	5
Ichki suv oqizish elementi va undagi nosozliklar	2
Tashqi suv oqizish elementi va undagi nosozliklar	5
Devorlar	
Ayrim g’ishtlarning tashqi devorlardagi g’isht terilmasi bilan bog’lanishining yo’qolganligi	1 (xavfli zonani zudlik bilan o’rab olish)
Balkon va balkon panjaralarining shikastlanishi	1 (xavfli zonani zudlik bilan o’rab olish)
Devorlarning muzlashi	Texnik jihatdan mumkin bo’lgan muddatlarda
Panellar orasidagi choklardan suv tomchilashi	7
Gaz kanallari va tutun chiqish yo’llaridagi nosozliklar (nojipsliklar)	1
To’rt nuqtadan birida devor panellarining karkas bilan birikishining buzilishi	
Karnizlardagi temir-beton plitalar, g’isht terimidagi ayrim g’ishtlarning va deraza hamda eshik usti to’sinlarining, fasadlardagi arxitekturaviy bezak elementlarning boshqa konstruksiyalar bilan bog’lanishining (odamlar xavfsizligiga ta’sir qiluvchi) zaiflashishi, suvoq va pardoq qatlamlarining odamlar xavfsizligiga ta’sir qiluvchi qatlamlanishi	1
Deraza va eshik usti to’sinlarining deformatsiyalanishi (yorib o’tuvchi tirqishlar)	1
Deraza va eshiklar bo’shliqlarining to’ldirmalari	
Derazalarning singan oynalari va derazalarning buzilgan tabaqalari, fortochkalari hamda balkon eshiklarining buzilgan fortochkalari, balkon eshiklarining buzilgan tabaqalari, vitrinalar va vitrajlarining buzilgan tabaqalari, singan shishabloklar:	
qish faslida	1
yoz faslida	3
Derazalardan suv tomchilashi	7
Pechlar	
Yong’inni tarqalish xavfini yuzaga keltiruvchi yoriqlar va boshqa nosozliklar hamda xonalarga turli gazlarning kirishi	1 (foydalanishni to’xtatish)

Ichki va tashqi pardo	
Shift suvoq qatlami yoki devorlar yuqori qismi suvoq qatlamining odamlar hayotiga xavf tug'diruvchi qatlamlanishi	5 (tezkor xavfsizlik chora-tadbirlarini qabul qilish bilan)
Fasadlarga 1,5 m dan ortiq bo'lmagan balandlikda o'rnatilgan tashqi pardo qoplamalari, naqqoshlik detallarining devorlar bilan birikishining buzilishi	Tezkor xavfsizlik chora-tadbirlarini qabul qilish bilan
Xuddi shunday fasadlarning tsokol qismidagi tashqi pardo qoplamalari, naqqoshlik detallarining devorlar bilan birikishining buzilishi	5
Sovuq va issiq suv ta'minoti, kanalizatsiya, isitish tizimlari	
Suv o'tkazmalari va suv oqizish baklaridagi tomchilash holatlarini bartaraf etish	1
Avariya holatlarida (quvuro'tkazgichlardagi va ularning tutashgan joylaridagi yoriqlar, teshiklar hamda ventillar va zadvijskalarda) va isitish, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimlarida, suvni ko'taruvchi qurilmalarning ventillari, burama berkitgichlarida yuzaga keladigan nosozliklarni tuzatish	Tezkor tuzatish
Chiqindi tushirish quvuro'tkazichidagi nosozliklar	1
Fekalli va drenaj nasoslaridagi nosozliklar	1
Elektr qurilmalari	
Elektr tarmoqlari va uskunalarida avariya olib keluvchi nosozliklar (qisqa tutashuv, elektr toki urishi bilan shikastlanish xavfi va boshqalar)	Tezkor tuzatish
Shuningdek, avariya holatini keltirib chiqarmaydigan nosozliklar	1
Birlashgan (integratsiyalashgan) dispetcherlik tizimlaridagi nosozliklar	Tezkor tuzatish
Yong'in avtomatikasidagi nosozliklar	Tezkor tuzatish
So'zlashish-qulfluvchi qurilmalardagi va binoga kirish joylaridagi kodli qulflardagi nosozliklar	1
Elektr plitalaridagi nosozliklar	Ko'chmas mulk egalari va ijarachilari bilan kelishilgan muddatlarda. Yotoqxonalarda — 1
Liftlar	
Liftdagi nosozliklar	1 (foydalanishni to'xtatish)
Ventilatsiya	
Xonalarda havo almashinuvining buzilishi	Tezkor bartaraf etish
Gaz ta'minoti	
Gazning sizib chiqishi	Tezkor bartaraf etish
Uskunalardagi nosozliklar	Tezkor tuzatish